

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**MEXANIKA MUHANDISLIGI**

**2025**

***MEXANIKA MUHANDISLIGI  
YO'NALISHINING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY  
YUTUQLARI***

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan

**Tuzuvchi:** TDTU, “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi dotsenti,  
t.f.f.n.(PhD), dotsent U.T. Mardonov

**Taqrizchi:** TDTU, “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi professori, t.f.d.  
T.U. Umarov, t.f.d., professor A.M. Mamadjanov

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2024 yil 27-noyabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

## **MUNDARIJA**

I.	<b>Ishchi dastur.....</b>	<b>6</b>
II.	<b>Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari</b>	<b>14</b>
III.	<b>Nazariy materiallar .....</b>	<b>18</b>
IV.	<b>Amaliy mashg‘ulot materiallari.....</b>	<b>103</b>
V.	<b>Keyslar banki .....</b>	<b>138</b>
VI.	<b>Glossariy .....</b>	<b>138</b>
VII.	<b>Adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>142</b>

## I. ISHCHI O'QUV DASTUR

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalgalashishga ko'maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalgalashish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablarasi asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini sub’ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini mashinasozlik texnologiyasining zamonaviy tendensiyalari, ilmiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, loyihalarni tahlil qilish va qaror qabul qilish asoslari, mashinasozlik texnologiyasida optimal loyihalash, zamonaviy jihozlarini boshqarish, innovatsion texnologiyalar, ularda qo‘llanadigan asbob uskunala hamda ularning samaradorligini oshirish ishlari mazmunini o‘rganishga yo‘naltirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- mamlakatimizda mashinasozlik texnologiyasini rivojlanishining strategik masalalari va istiqbollarini o‘rganish;
- mashinasozlikda ilmiy tadqiqot uchun boy raqobatbardosh texnologiyalarni tahlil qilish;
- metallarni kesish hamda ishlab chiqarish sohalarida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlarini o‘rganish;
- raqamli ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni tahlil qilish va ularni o‘rganish;
- mashinasozlik ishlab chiqarishda taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini va innovatsion yechimlarini rejalashtirish;
- mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integrasiyasini ta’minalash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Mashinasozlik texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- mashinasozlik texnologiyasining zamonaviy tendensiyalarini va yangiliklarini;
- mashinasozlik mahsuloti sifatini ta’minalashning zamonaviy va innovatsion usullarini;

- mashinasozlik tarmoqlarida innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni;
- mashinasozlikda energiya manbalarini;
- energetik qurilmalarning ekologik muammolarni;
- mamlakatimizda va jahonda mashinasozlik texnologiyasini rivojlanish yo‘nalishlari, strategiyasi masalalari va istiqbollari haqidagi zamonaviy **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- mashinasozlik ishlab chiqarishida mahsuldorlik va maxsulot sifatini ta’minlashning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- har xil turdagи detallar tayyorlashning texnologik jarayonlarini ishlab chiqishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- chiqindi moddalar bo‘yicha standartlardan foydalanish;
- mashinasozlikda zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologik jarayonlarni loyihalash **ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi**;
- mashinasozlik texnologiyasi yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etish;
- innovatsion va ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga ongli tatbiq etish;
- transport vositalaridan chiqadigan maddalarni gazoanalizatorda aniqlash;
- chiqindi moddalar bo‘yicha standartlarni tahlil qilish;
- mashinasozlikda zamonaviy yangi tipaviy texnologik jarayonlarini va guruhli ishlov berish jarayonlarni loyihalash hamda ularni amaliyotga joriy etish **kompetensiyalarini egalashi lozim**.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Mashinasozlik texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan.
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Mashinasozlik texnologiyasining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli o‘quv rejadagi quyidagi fanlar bilan bog‘liq: Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasi, Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning texnologik jihozлari.

## Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarish mahsuloti konstruksiyasining murakkablashuvi va ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasining tez o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Bunday sharotlarida ishlab chiqarishni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish, mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yuqori unumдорлик va aniqlikni ta'minlaydigan texnologik jarayonlarni loyihalay oladigan va ulardan ishlab chiqarishda samarali foydalanishni yo'lga quyishni ta'minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

### MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	<b>Modul tarkibi</b>		<b>Auditoriyadagi o'quv yuklamasi</b>			
			<b>Hammasi</b>	<b>Jumladan:</b>		
				<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Analiy</b>
1.	<b>Mashinasozlik texnologiyasini rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari.</b> Mashinasozlik texnologiyasi asoslari yangiliklarini va ilg'or texnologik jarayonlarni zamonaviy ishlab chiqarishga tadbiq etish. Shuningdek, mashinasozlik texnologiyasi sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning metodlari hamda ulardan foydalanish usullari.		4	2	2	
2.	<b>Mashina detallariga ishlov berishni tadqiqot qilishning zamonaviy ilmiy asoslari.</b> Zamonaviy texnologik jarayonlarni loyihalashda detallar chizmasi tahlili maqsadi, detallaming ishchi chizmalari tahlili, mashinasozlik detallari chizmalarini bajarish qoidalari, yuzalaming quyimlari, joizliklari va sifatini ta'minlashning yangi sistemalari va yangiliklari va ulami amaliyotga joriy etish.		4	2	2	
3.	<b>Mashinasozlik ishlab chiqarishida zamonaviy, avtomatlashtirilgan texnologik jihozlar.</b>		8	2	4	2

	Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jihozlari, RDB, ko'p operatsiyali stanoklar va moslanuvchan ishlab chiqarish modullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik imkoniyatlari, ishslash printsiplari, asosiy va servis qurilmalari, avtomatik boshqarish sistemalari.				
4.	<p><b>Mashinasozlik ishlab chiqarishda additiv texnologiyalar.</b></p> <p>Bugungi kunda mashina detallarini ishlab chiqarishda eng so'nggi texnologiya sifatida kirib kelgan additiv ishlab chiqarish texnologiyasi, 3D printerlar, 3D ishlab chiqarishning usullari va turlari, zamonaviy mashinasizlikda additiv texnologiyaning o'rni, uni qo'llash sohalari.</p>	6	2	2	2
5.	<p><b>Mashinasozlikda energiya manbalari.</b></p> <p>Zamonaviy transport vositalarining energetik qurilmalari. Ichki yonuv dvigatellari. Elekrtomobillar va gibrild kuch qurilmalari. Energiya manbalarinig boshqa turlari.</p>	6	2	2	2
6.	<p><b>Energetik qurilmalarning ekologik muammolari.</b></p> <p>Transport ekologiyasi. Transport vositalaridan chiqadigan maddalarning tahlili. Chiqindi moddalar bo'yicha standartlar. Ekologiyaga zararli ta'sirni kamaytirishning chora-tadbirlari.</p>	6	2	2	2
7.	<p><b>Avtomobilsozlik va traktorsozlikda muqobil energiya manbaalaridan foydalanishnig zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari.</b></p> <p>Muqobil energiya turlari va ulardan foydalanishda xalqaro tajribalar. "Yashil energetika" ga o'tish jarayoni ajratilayotgan investitsiya dinamikasi. Kioto Protokoli va Parij kelishuvi haqida.</p>	6	2	2	2

	<b>Avtomobilsozlik va traktorsozlikda energiya samaradorlikni oshirishda ilm-fan va sohani raqamlashtirishning tutgan o‘rni.</b>					
8.	Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari. Sohadagi katta hajmdagi ma'lumotlar va sun'iy intellekt usullari o'rtaсидаги sinergiya. Xavfsizlikni ta'minlash usullari. Inson kapitali sifatini oshirish.	6		2	2	2
<b>Hammasi</b>		<b>46</b>		<b>16</b>	<b>18</b>	<b>12</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-MAVZU: MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI.**

Mamlakatimizda mashinasozlik texnologiyasini rivojlanishining strategik masalalari va istiqbollari. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari yangiliklarini va ilg'or texnologik jarayonlarni zamonaviy ishlab chiqarishga tadbiq etish. Shuningdek, mashinasozlik texnologiyasi sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning metodlari hamda ulardan foydalanish usullari.

### **2-MAVZU: MASHINA DETALLARIGA ISHLOV BERISHNI TADQIQOT QILISHNING ZAMONAVIY ILMIY ASOSLARI.**

Zamonaviy texnologik jarayonlarni loyihalashda detallar chizmasi tahlili maqsadi, detallaming ishchi chizmalari tahlili, mashinasozlik detallari chizmalarini bajarish qoidalari, yuzalaming quyimlari, joizliklari va sifatini ta'minlashning yangi sistemalari va yangiliklari va ulami amaliyotga joriy etish.

### **3-MAVZU: MASHINASOZLIK ISHLAB CHIQARISHDA ZAMONAVIY, AVTOMATLASHTIRILGAN TEXNOLOGIK JIHOZLAR.**

Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jihozlari, RDB, ko'p operatsiyali stanoklar va moslanuvchan ishlab chiqarish modullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik imkoniyatlari, ishlash printsiplari, asosiy va servis qurilmalari, avtomatik boshqarish sistemalari.

### **4-MAVZU: MASHINASOZLIK ISHLAB CHIQARISHDA ADDITIV TEXNOLOGIYALAR.**

Bugungi kunda mashina detallarini ishlab chiqarishda eng so'nggi texnologiya sifatida kirib kelgan additiv ishlab chiqarish texnologiyasi, 3D printerlar, 3D ishlab

chiqarishning usullari va turlari, zamonaviy mashinasizlikda additiv texnologiyaning o'rni, uni qo'llash sohalarini o'rganish va tahlil qilish.

### **5-MAVZU: MASHINASOZLIKDA ENERGIYA MANBALARI**

Zamonaviy transport vositalarining energetik qurilmalari. Ichki yonuv dvigatellari. Elekrtomobillar va gibridd kuch qurilmalari. Energiya manbalarinig boshqa turlari.

### **6-MAVZU: ENERGETIK QURILMALARNING EKOLOGIK MUAMMOLARI**

Transport ekologiyasi. Transport vositalaridan chiqadigan maddalarning tahlili. Chiqindi moddalar bo'yicha standartlar. Ekologiyaga zararli ta'sirni kamaytirishning chora-tadbirlari.

### **7-MAVZU: AVTOMOBILSOZLIK VA TRAKTORSOZLIKDA MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARIDAN FOYDALANISHNIG ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Muqobil energiya turlari va ulardan foydalanishda xalqaro tajribalar. "Yashil energetika" ga o'tish jarayoni ajratilayotgan investitsiya dinamikasi. Kioto Protokoli va Parij kelishuvi haqida.

### **8-MAVZU: AVTOMOBILSOZLIK VA TRAKTORSOZLIKDA ENERGIYA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA ILM-FAN VA SOHANI RAQAMLASHTIRISHNING TUTGAN O'RNI.**

Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari. Sohadagi katta hajmdagi ma'lumotlar va sun'iy intellekt usullari o'rtasidagi sinergiya. Xavfsizlikni ta'minlash usullari. Inson kapitali sifatini oshirish.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1- amaliy mashg'ulot: Texnologik jarayonlarni loyihalashda bazalashning yangi sistemalari.**

Zamonaviy texnologik jarayonlarni loyihalashda bazalash sistemalarining yangiliklari. Bazalash printsiplari va turlari. Bazalash tamoyillari. Texnologik jarayonlarni loyihalashda texnologik bazalarni tayinlanishi.

### **2-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jihozlari.**

Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jihozlari, RDB, ko'poperatsiyali stanoklar va moslanuvchan ishlab

chiqarish modullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik imkoniyatlari, ishlash printsiplari, asosiy va servis qo'rilmalari, avtomatik boshqarish sistemalari.

### **3-amaliy mashg'ulot: Mashinasozlikda innovatsion texnologiyalar.**

Mashinasozlikda innovatsion texnologiyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularni texnik va iqtisodiy asoslash, ular asosida zamonaviy texnologik jarayonlarini qurish va ishlab chiqarishning optimal ko'rsatkichlari va ish rejimlarini ta'minlash, ilg'or zamonaviy texnologiyalardan fodalanishni amaliyatga tatbiq etish.

### **4-amaliy mashg'ulot: Ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalar.**

Raqamli ishlab chiqarishga o'tish, industry 4.0, uning kirib kelishi, raqamli ishlab chiqarishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar, o'lchov asboblari, ulardan foydalanish, ishlab chiqarishda sun'iy inetlektni qo'llash va bu jarayonda kerak bo'ladigan texnologiyalar.

### **5- amaliy mashg'ulot: Mashinasozlikda energiya manbalarining tahlili**

Zamonaviy transport vositalarida energetik qurilmalarning qo'llanilishi. O'zbekiston uchun maqbul energiya manbalarining istiqboli.

### **6- amaliy mashg'ulot: Energetik qurilmalarning ekologiyaga ta'sirini o'rganish**

Transport vositalaridan chiqadigan maddalarni gazoanalizatorda aniqlash. Chiqindi moddalar bo'yicha standartlarni tahlil qilish.

**7- amaliy mashg'ulot:** Klaas, Keys. NyuXolland, Djon Dir, Belorus, Rosselmarsh va boshqalar zamonaviy qatorli (chopiq) traktorining konstruksiyasini o'rganish va zamonaviy metodlar orqali taqqosiy tahlil qilish (2 soat).

**8- amaliy mashg'ulot:** «GM», «MAN», «Mersedes-Bens», «Toyoto», «BMW», «Honda» avtomobilari ta'minlash tizimi konstruksiyasini o'rganish va zamonaviy metodlar orqali taqqosiy tahlil qilish (2 soat).

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

### TA'LIM METODLARI

#### **“Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim” metodi (B-B-B)**

“Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim” metodi - yangi o‘tiladigan mavzu bo‘yicha talabalarining birlamchi bilimlarini aniqlash yoki o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlash uchun ishlataladi. Metodni amalga oshirish uchun sinf doskasiga yangi o‘tiladigan mavu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar yoziladi, talaba berilgan vazifani o‘zlariga belgilaydi. YUqorida berilgan tushuncha iboralarni bilish maqsadida quyidagi chizma chiziladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Ushbu metodda talabai tomonidan berilgan vazifani yakka tartibda yoki jutlikda jadvalni to‘ldiradi. YA’ni taxminan biz nimani bilamiz ustunida ro‘yxat tuzish fikrlarni toifalar bo‘yicha guruhlash. Bilishni xohlayman ustuni uchun savollar olish va savollarni o‘ylab belgilar qo‘yish. Biz nimani bildik ustuniga asosiy fikrlarni yozish.


#### **Mavzuga qo‘llanilishi:**

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
Mahsulotni kompyuterli loyihalash		
Kesuvchi asbob materialini tanlash.		
Kesuvchi asbob geometriyasini tanlash		
Kesib ishlov berish uchun jixoz tanlash		
Moslama tanlash		

Sifatni nazorat qilish		
Sifatni boshqarish		

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Metodning qo'llanilishi:** Mahsulotni loyihalash jarayonining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Kompyuterli loyihalashning kuchli tomonlari	Loyihaning yuqori sifatliligi...
W	Kompyuterli loyihalashningning kuchsiz tomonlari	Kimmat baxo maxsus vositlar dastur ta'minotining zarurligiligi...
O	Kompyuterli loyihalashdan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Loyihalangan maxsulotni RDB stanogida ishlov berish texnologiyasini avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkoniyati...
T	Kompyuterli loyihalash to'siqlar (tashqi)	Kompyuterli loyihalashning maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilishi...

### «Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foya va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan niyatlari tushrirloq tarqatma materiallarni tarqatadi.



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma havon qiladi.



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to'diriladi va mavzu vakunlanadi

## Metodning qo'llanilishi:

Kesuvchi asboblarning materiallari					
Tez kesar pulat		Qattiq qotishma		Minerallokeramik materiallar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu: Mashinasozlik texnologiyasini rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari.

**Reja:**

1. *Mahsulotni loyihalash.*
2. *Mahsulotni hayot sikli.*
3. *Mahsulotni loyihalashda CAD/CAM texnologiyalarini qo'llash.*
4. *Kompyuter-integratsiyalashgan ishlab chiqarish.*

**Tayanch iboralar:** detal, mahsulot, sikl, CAD/CAM, texnologiya, prototip, modellashtirish. Mamlakatimizda mashinasozlik texnologiyasini rivojlanishining strategik masalalari va istiqbollari. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari yangiliklarini va ilg'or texnologik jarayonlarni zamonaviy ishlab chiqarishga tadbiq etish.

##### 1.1. Mahsulotni loyihalash.

Mahsulot dizayni belgilangan maqsadlarga erishish uchun shakli va sun'iy xususiyatlariga ijodiy va tizimli yindjshuvni o'z ichiga oladi. Bu mahsulot ishlab chiqish va ishlab chiqarish qiymatining ko'pi bilan 80 % loyihaning dastlabki bosqichlarida qabul qilingan qarorlar tomonidan belgilanadi, deb taxmin qilingan, chunki dizayn, ijodiy faoliyat turi hisoblanadi.

Mahsulot dizayni aniq belgilangan vazifalarni va yangiligi, mahsulot kutilgan natijani bajarishi, yoki mavjud mahsulotni bir tahrirlangan versiyasi bayoni kabi innovatsion yondashuvlarni talab qiladi va mahsulot muvaffaqiyatli bo'l shida mahsulot dizayni muhim ahamiyatga ega. Mahsulot shuningdek, aniq belgilangan bo'lishi kerak, uning kutilgan natija berishi uchun bozor tendentsiyalari haqida ma'lumotlar tahlilchilar va savdo xodimlari yordamida aniqlanadi.<sup>1</sup>


*Loyihalash jarayoni.* 1-rasmida an'anaviy ishlab chiqarish va loyihalash ko'rsatilgan. Ushbu uslub, avvaliga, to'g'ri va mantiqiy ko'rinishi mumkin, lekin amalda, bu resurslarni isrof qiladi. Ishlab chiqarish jarayonini muhandis misolida ko'rib chiqaylik material juda qattiq bo'lmasligi kerak. metall o'rniga polimer yoki sopol kabi turli materiallardan foydalanish mumkin deb belgilash mumkin.<sup>2</sup>

1-rasmdagi diagrammada an'anaviy loyihalash va mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari ko'rsatilgan. Mahsulot va ishlataladigan materiallar turi murakkabligiga qarab, original tushunchasi va mahsulot marketingi o'rtasidagi bog'liqlik ko'satilgan. 1-rasmida mahsulotni loyihadan bozorga olib chiqish bosqichlari ham ko'satilgan. Bunda bozor tahlilidan kelib chiqib, talabga qarab mahsulot loyihalanadi.

---

1 S. Kalpakjian , Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 8-10 pages.

2 S. Kalpakjian , Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 8-10 pages.



### 1.1-rasm. Loyihalash jarayoni


Mahsulot loyihalangandan keyin uni ishlab chiqarishga beriladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotni keying bosqichda nazorat qilinadi. Nazoratdan o'tgan mahsulot bozorga chiqariladi.

*Bir vaqtida loyihalash.* Sanoat mahsulotlarini iste'mol bozoriga, birinchi navbatda, trend bozorida yuqori foiz ulushini va undan yuqori foyda olish uchun, imkon qadar tezlik bilan bozorga olib kirish kerak. Bunga erishishga qaratilgan muhim metodologiyasi shakli mahsulot-ishlab chigarishga yondashuvni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida muhandislik deb nomlangan bu tushuncha, hali ham an'anaviy yondashuv (diagramma-2,a) bilan bir xil umumiy mahsulot-oqimi ketma-ketligiga ega bo'lsa-da, unutmang, u bir necha bor o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Mahsulotni loyihalashda va muhandislikning dastlabki bosqichlarida boshlab, barcha tegishli fanlar endi bir vaqtning o'zida ishtirok etmoqda. Natijada, qilinishi mumkin bo'lган har qanday o'zgarish loyiha uchun an'anaviy yondashuvda uchraydi va ancha kam vaqtni isrof qiladi. Shunday qilib, loyiha kichik kuchni talab etadi. Bu yondashuvning bir muhim xususiyati shundaki barcha fanlar doirasida aloqani ahamiyatga ega ekanligini tan olishi aniq bo'lishi kerak.<sup>3</sup>


Bir vaqtida loyihalash barcha ishlab chiqarish kompaniyalari 98% ini tashkil qiladi. Bunday kompaniyalar odatda, kichik biznes deb ataladi. Bir vaqtida loyihalash foydalaridan bir misol sifatida, bir avtomobil kompaniyasi, 30% o'z dvigatellari

---

<sup>3</sup> S. Kalpakjian , Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 8-10 pages.



birida komponentlarini sonini kamaytirdi. Dvigatel og'irligi 25% kamayadi, hamda 50% ishlab chiqarish vaqtı kamayadi.<sup>4</sup>



**1.2-rasm. a) mahsulotni a'nnaviy ishlab chiqarish bosqichlari.  
b) mahsulotning umumiyoqimi**

## 1.2. Mahsulotni hayot sikli.

*Hayot sikli.* Bir vaqtida loyihalash, dizayn va mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulot hayot sikli barcha elementlarni optimallashtirish tomonidan bir ko'rinish

<sup>4</sup> Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA. - 2012. – 9- pages.

bilan integratsiya qilingan. Yangi mahsulot hayot aylanishi odatda quyidagi to'rt bosqichdan iborat:

1. Mahsulotni loyihalash.
2. Bozorda mahsulotga talabning o'sishi.
3. Mahsulotni yetukligi.
4. Utilizatsiya.

Binobarin, dizayn bosqichida, bir mahsulotning butun hayoti, ishlab chiqarish, tarqatish, mahsulot foydalanish nihoyat, qayta ishlanishiga yoki mahsulot utilizatsiyasi orqali boshlangan muhandislik, hayot-aylanishi sifatida qabul qilinishi talab qiladi.<sup>5</sup>

### **1.3. Mahsulotni loyihalashda CAD/CAM texnologiyalarini qo'llash.**

*Mahsulot dizaynda kompyuterning ahamiyati.* Odatda, mahsulot dizayni birinchi ko'rinish va muhandislik tahlil qilish uchun mahsulotni analitik va jismoniy modellarini tayyorlashni talab qiladi.

Bunday modellar mahsulot murakkabligidan bog'liq bo'lsa-da, qurish uchun ehtiyoj va bu modellarni o'rganish, kompyuterli dizayn (SAPR) va kompyuterli muhandislik (CAE) lardan texnik foydalanish orqali yuqori darajada soddalashtirilishi mumkin.

ALT tizimlari katta va murakkab bir dasta tuzilmalar bo'lib, dizaynlashtiris, oddiy va to'liq tahlil qilish imkoniga ega. masalan, Boeing-777 yo'lovchi samolyoti sakkizta dizayn serverlar bilan bog'langan, 2000 avtomatlashtirilgan ish joyi bilan, qog'ozsiz dizayn deb nomlanuvchi jarayonda amalga oshirilgan, bu jarayon butunlay kompyuterlar tomonidan loyihalangan. Samolyot avvalgi maketlardan farqli o'laroq, na prototiplari yoki na maketlar quriladi, balki CAD/CAM dasturiy ta'minotidan to'g'ridan-to'g'ri yig'ilgan edi.<sup>6</sup>

Kompyuterda ishlab chiqarishni loyihalash - foydalanish va tashkilotning ma'lumotlar bazasida yig'ilgan va saqlangan barcha materiallar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qatta miqdorini qayta ishslash asjsida ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Kompyuterlar katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlab, tashkil etish va nazorat qilish, raqamli boshqariladigan mashinalarni dasturlash va moddiy-foydalanish, montaj operatsiyalari uchun robotlar va boshqa vositalarini loyihalashtirish, sifat nazorati kabilarni amalga oshirishga katta yordam beradi. Ishlab chiqilgan va batafsil tahlil qilingan modellar asosida, mahsulot dizaynerlari keyin ularning o'lchav dopusklari va sirtinig-oxirgi xususiyatlarini belgilovchi, jumladan mahsulot tarkibiy qismlarining har birini geometrik xususiyatlarini maromiga etkazishda katta yordam beradi. Barcha komponentlar, ahamiyatidan qat'i nazar, ularning o'lchami, oxir-oqibat, yakuniy mahsulot ichiga o'rnatilgan bo'lishi kerak, chunki, o'lchfm dopusklariga ishlab chiqarishda katta e'tiborda bo'ladi. Albatta, o'lcham dopusklari kichik mahsulotlar uchun, shuningdek, avtomobil organlari yoki samolyotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari,

---

6 Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 26 page.

ishlab chiqilgan modellar o'z navbatida zarur mexanik va fizik xususiyatlarga ega materiallarni tanlash, ta'sir etib xususiyatlarini olishni beradi.<sup>7</sup>

*Prototip.* Prototip individual komponent yoki mahsulotning fizik modeli hisoblanadi. Tajriba prototiplari mumkin modifikatsiyadagi uchun diqqat bilan tahlil qilinib, original dizayn, materiallar, ishlab chiqarish usullari ko'rib chiqiladi. Texnologiya doimo rivojlanib tez prototiplash sodir bo'lmoqda. Endi dizaynerlar CAD/CAM tizimlari va yangi maxsus texnologiyalardan foydalanib, prototiplarni tez va kam xarajat bilan metallardan yoki nometall materiallardan (masalan plastmassa va keramik materiallar) prototip yasash mumkin .

An'anaviy usullar (masalan, quyish, shakllantirish va ishlov berish kabi) orqali yangi qismlarni prototiplashtirish uchun avtomobil kompaniyasiga ba'zi qismlariga bir yil talab qiladi, yoki bajarish uchun yana bir yil, yuzlab millionlab dollar talab qiladi. Tez prototiplash mahsulot-ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni sezilarli va bir necha marta marta kamaytirishi mumkin. Tez-prototiplash texnikasi endi mahsulotlarini ichiga o'rnatilgan bo'lishi dolzarb bo'lib, turli iqtisodiy ishlab chiqarishning funktsional qismidan biri bo'lib, (kam 100 qismlari odatda guruhga bo'linib) ular ham hajmi kam bo'lishi uchun foydalanishi mumkin, bir darajaga ilg'or bo'ladi.<sup>8</sup>

*Virtual prototip.* Virtual prototip dizaynerlar ko'rishi va bir qismini batafsil ko'rib chiqish imkonini berishi uchun, dasturiy ta'minoti asosida ilg'or grafik va virtual muhitlardan foydalanuvchi hisoblanadi. Shuningdek, modellashtirish asosida loyihalash sifatida ma'lum bo'lgan bu texnologiya, u chizilgan va ishlab chiqiluvchi sifatida 3-D interaktiv virtual muhitda, dizaynerlar kuzatishi va ishtirokida baholash mumkin, masalan, bu bir qismini to'lash uchun SAPR paketlaridan foydalanadi. Virtual prototiplash, ayniqsa kompyuterlar va modellashtirish va tahlil vositalari mavjudligida, arzon bo'lib, muhim ahamiyat kasb etdi.

#### **1.4. Kompyuter-integratsiyalashgan ishlab chiqarish.**

**Kompyuter-integratsiyalashgan ishlab chiqarish (CIM).** Nomidan ham ko'rinish turibdiOki, bozor ishlab chiqarish va tarqatish yo'li bilan dastlabki mahsulot tushunchasi kompyuter grafikasi, kompyuter-yordamida modellashtirish, kompyuterli dizayn va ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot va apparat integratsiyasini talab qiladi. Bunga har tomonlama va kompleks yondashuv 1970 yilda boshlangan chunki, quyidagi vazifalarni bajarishi ayniqsa samarali bo'ldi:

- mahsulot dizayni modifikatsiyada tez o'zgarishlarga va bozor talablariga qarab o'zgarishini ta'minlash.
- materiallar, jihozlar va xodimlardan yaxshi foydalanish.
- inventarizatsiyani qisqartirish.
- ishlab chiqarish jarayonini va boshqaruv tizimini kuchli nazorati.<sup>9</sup>

---

<sup>7,8</sup>Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 27 page.

<sup>9,10</sup>Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 26 page.

## CIM ning turli elementlari

1. Kompyuterli boshqarish (CNC). Birinchi 1950 yilda amalga oshirilgan, bu ma'lumotlarni soni shaklida kodlangan ko'rsatmalar bevosita kiritilishi bilan mashina qismlarining harakatlari nazorat usuli hisoblanadi.

2. Adaptive nazorat (AC). Operatsiyada ishchi parametrlarni avtomatik ishlab chiqarish tezligini va mahsulot sifatini optimallashtirishni o'rnatadi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, ishlov kuchlari, harorat, sirt va qismi o'lchamlari doimiy nazorat qilinishi mumkin; Ular belgilangan oralig'idan tashqariga harakat bo'lsa parametrlarini belgilangan chegara ichida kiritguncha qadar, tizim tegishli o'zgaruvchilari rostlanadi.



**1.3-rasm. Avtomobil organlarining ommaviy-ishlab chiqarish liniyasi**  
**Manba: Ford Motor Company.**

3. Ishlab chiqarish robotlar. 1960 yillarning boshida joriy qilingan, sanoat robotlari (3-rasm) tez, takrorlanadigan, ayniqsa xavfli va zerikarli bo'lgan operatsiyalarini bajarishda insonlarni almashtirishni ta'minlaydi. Natijada, mahsulot sifatini o'zgaruvchanligi kamayadi va unumдорлиги yaxshilangan. Robotlar montaj operatsiyalarida ayniqsa samarali bo'lgan va ba'zi bir (aqlii robotlar) odamlar oxshash taqlid, hissiy-idrok qobiliyati va harakatlari bilan ishlab chiqildi.<sup>10</sup>

4. Avtomatlashtirilgan materiallari. Kompyuterlar turli bosqichlarida (taraqqiyot ish) da, mashina bir qismini, oxirgi materiallar va butlovchi qismlarini jo'natish, tekshirish, inventarizatsiya qilish, tashish harakatlarini yuqori samarali tashkil qilishni mumkin qildi.

5. Avtomatlashtirilgan yig'ish tizimlari. Bunday tizimlar, odamlar hali ham ayrim operatsiyalarini amalga oshirish uchun bor bo'lsa-da, inson operatorlari tomonidan malhamdek o'zgartirish ishlab chiqish davom etmoqda. Yig'ish xarajatlari mahsulot turiga qarab, yuqori bo'lishi mumkin; ular umumiy ishlab chiqarish

xarajatlarni kamaytirish, tezroq avtomatlashtirilgan mashinalar tomonidan yanada oson yig'ilishi mumkin.

6. Yordamchi jarayonlarni kompyuterli-rejalashtirish (CAPP). bu tizim jarayonni rejalahtirish, optimallashtirish, takomillashtirish unumdorligini oshirish, mahsulot sifati va mustahkamligini oshirish va shu sababli xarajatlarni kamaytirishga qodir. Bunday qiymatini baholash va monitoring ish standartlari (ma'lum bir operatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt) kabi vazifalar ham tizimiga kiritilgan.<sup>11</sup>

7. Gruhli texnologiya (GT). Guruhli texnologiya tushunchasi orqasida qismlari guruhlangan va dizayni o'xshash va ularni ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish jarayoni unifikasiyalangan, ularni tasniflash asosida ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin deb hisoblanadi. Shu tarzda, bir qismi dizaynlashtirilgan va jarayon rejalar standartlashtirilgan va yangi mumkin qismlari (ilgari qilgan shunga o'xshash buyumlar asosida) samarali va iqtisodiy ishlab chiqarilishi mumkin.

8. Bir vaqtda ishlab chiqarish (JIT). JIT printsipi ortida (1) xom ashyo va qismlar ta'minoti (3) bor mahsulotlar qurilmaning ichiga qilinishi, (2) qismlari va qismlariga faqat vaqt ichida ishlab chiqarilgan foydalanish faqat vaqt ichida ishlab chiqaruvchi yetkazib beruvchi, faqat vaqt ichida yig'ilgan va tayyor yetkazib berish kerak. Natijada, inventarizatsiya o'tkazish xarajatlarini komponentlarida nuqsonlar, darhol aniqlanadi, hosildorlik ortadi va yuqori sifatli mahsulotlar arzon past narxlarda qilinadi.

9. Uyali ishlab chiqarish (Sm). Ushbu tizimda har bir mashinani tekshirish, shu jumladan, bir qismida bir xil operatsiyalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish yacheykalar bir qator markaziy robot tomonidan nazorat har bir o'z ichiga olgan turli xil ishlab chiqarish mashinalari iborat ish stantsiyalari foydalanadi.

10. Moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari (MichT). Bunday tizimlar markaziy kompyuter bilan bog'lig' ycheykalar bilan, katta ishlab chiqarish muhitini ichiga oluvchi ishlab chiqarish ycheykalarini integratsiyasidan iborat. Juda qimmat bo'lsa-da, lekin moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari turli qismlarni nisbatan kichik miqdorda, tez va zarur bo'lgan muddatda ishlab chiqarish, o'zgaruvchan sharoitlarda samarali ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Tadbirkorlik mahsulotlari barcha turlari bo'yicha bozor talabini tez o'zgarishlarni qondirish uchun ushbu tizimlari katta imkon.

11. Expert tizimlari (ES). Asosan murakkab kompyuter dasturlaridan iborat, ushbu tizimlar inson ekspertlar, shu jumladan, dizaynni optimallashtirish an'anaviy takrorlanuvchi jarayonni jadallashtirish, qiyin hayotiy muammolarni turli vazifalarini amalda hal etish qobiliyatiga ega.

12. Sun'iy aql (elektron miya). Kompyuter-nazorat tizimlari endi o'rganish tajribasini va oxir-oqibatda inson aqlini almashtirish, operatsiyalarini optimallashtirish va xarajatlarini kamaytirish uchun qarorlar qabul qila oladigan bo'ladi.

---

<sup>11</sup> Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 26-27 page.

13. Sun'iy nerv tarmoqlari (YSA). Bu tarmoqlar modellashtirish kabi qobiliyat va taqlidiy ishlab chiqarish muassasalari, monitoring va ishlab chiqarish jarayonlarini nazorati, mashinasozlik muammolarni bajarish, diagnostika va moliyaviy rejalshtirishni o'tkazish va kompaniyaning ishlab chiqarish strategiyasini boshqarish bilan, inson miya-fikr jarayonlariga taqlid qilish uchun mo'ljallangan.<sup>12</sup>

#### **Nazorat savollari:**

1. Mahsulotni loyihalash, loyihalash jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Mahsulotni hayot sikli, deb nimaga aytildi?
3. Mahsulot dizaynda kompyutering ahamiyati va prototiplar haqida nimalarni bilasiz?
4. Kompyuter-integratsiyalashgan ishlab chiqarish, islab chiqarish tizimlari va turlari haqida gapirib bering.
- 5.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2012.1173
2. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, London, UK, 2010.
3. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>
4. Суслов А.Г. Технология машиностроения.- М: Машиностроение. 2018.- 400 с.
5. Bazrov B.M. Osnovi texnologii mashinostroyeniya. – M: Mashinostroyeniye, 2005.-736 s.

---

<sup>12</sup> Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. **Manufacturing Engineering and Technology** - Prentise Hall, USA.- 2012. – 27 page.

## **2 - mavzu. Mashina detallariga ishlov berishni tadqiqot qilishning zamonaviy ilmiy asoslari.**

***Reja:***

- 1. Ilmiy tadqiqot uchun raqobatbardosh texnologiyalar*
- 2. Mashinasozlikda zamonaviy texnologik jarayonlar*
- 3. O'lchovli ishlov berish texnologiyasi.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ilmiy tadqiqot, mashinasozlik, texnologik jarayonlar, texnologiya, asboblar, konstruktorlik, detal.

### ***Ilmiy tadqiqot uchun raqobatbardosh texnologiyalar***

Ilmiy tadqiqot uchun raqobatbardosh texnologiyalar - fanning eng yangi yutuqlariga asoslangan texnologiyalar; tizimni qurish; modellashtirish; mahsulotni ishlab chiqarish, ishlatish va ta'mirlash xarakatlarini optimallashtirish; qayta ishlashning yangi va kombinatsiyalangan ilm talab qiladigan usullari va texnik jarayonlari; kompyuter texnologiyalari muhiti va integratsiyalashgan ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, bu ularga raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.


Bunday texnologiyalarni amalga oshirish uchun tegishli texnik jihozlar (yuqori aniqlikdagi uskunalar, texnologik asbob-uskunalar va mexanik, fizik-kimyoiy va kombinatsiyalangan ishlov berish vositalari, shu jumladan turli qoplamalarni qo'llash, avtomatlashtirilgan diagnostika va nazorat qilish tizimlari, kompyuter tarmoqlari) va xodimlarni ta'minlash (barcha xodimlarning yuqori malakasi, ilmiy maslahatlar va boshqalar) ni talab qilinadi.

Qoida tariqasida, mashinasozlikdagi ilmiy boy texnologiyalar mahsulotlarning funktional xususiyatlarini va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun qo'llaniladi.

Strukturaviy ravishda, bu 2.1-rasmda ko'rsatilgan.

Ilmiy tadqiqotlarni talab qiluvchi texnologiyalarning asosiy xususiyati ular asosidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridir.

Mustahkamlik dialektik munosabatlarni, texnologik tizimning barcha elementlari, barcha asosiy jarayonlar, hodisalar va tarkibiy qismlarning o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Texnologik qayta ishlash va yig'ish tizimining barcha konstruktiv elementlari (uskunalar, asboblar, ishlov berilgan materiallar, moslamalar, o'lchovlar, diagnostika, ijro etuvchi organlarning ishi) aniqligi va ushbu talablarga muvofiqligi talabi sifatida izchillik (sistematik ishlash) ayniqsa muhimdir.



## 2.1-rasm. Ilmga boy raqobatbardosh texnologiyalar strukturasi

Ilmni talab qiladigan texnologiyalarning eng muhim xususiyati, albatta, yangi texnologik jarayondir. U butun texnologik tizimda ustunlik qiladi va turli xil talablarga javob berishi kerak, lekin, eng muhimi, mahsulotning funktsional xususiyatlarining yangi darajasiga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu yerda ilm-fanni talab qiluvchi mexanik ishlov berish usullari va texnik jarayonlardan unumli foydalanadigan barqaror va ishonchli fizik texnik jarayonlar, kompyuter texnologiyalari muhiti va integratsiyalashgan ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boy imkoniyatlarga ega (bu ularga raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi).

Bunday texnologiyalarni amalga oshirish uchun tegishli texnik jihozlar (o'ta yuqori aniqlikdagi uskunalar, texnologik moslamalar va asboblar, mexanik, fizik-

kimyoviy va kombinatsiyalangan ishlov berish vositalari, shu jumladan turli qoplamlarni qo'llash, avtomatlashtirilgan diagnostika va nazorat qilish tizimlari, kompyuter tarmoqlari) va xodimlarni ta'minlash (barcha xodimlarning yuqori malakasi, ilmiy maslahatlar va boshqalar) juda muhim hisoblanadi.

### ***Zamonaviy texnologik jarayonlar***

Ilmni talab qiladigan texnologiyalarning eng muhim xususiyati, albatta, yangi texnologik jarayondir. U butun texnologik tizimda ustunlik qiladi va turli xil talablarga javob berishi kerak, lekin, eng muhimi, mahsulotning funksional xususiyatlarining yangi darajasiga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu yerda fizik, kimyoviy, elektrokimyoviy va boshqa hodisalardan asbobning maxsus xossalari, texnologik muhit, masalan, kriogen kesish, mahsulotlarga diffuzion usulda shakl berish va hokazolar bilan uyg'unlikda samarali foydalaniladigan barqaror va ishonchli texnik jarayonlar boy imkoniyatlarga ega. Yangi texnik jarayonlarning rivojlanishi bosqichma-bosqich tarzda quyidagicha xarakterga ega bo'ladi:

1. Marketing bosqichida mahsulot iste'mol xususiyatlarining yig'indisi sifatida baholanadi, so'ngra mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qodir bo'lgan iste'mol xususiyatlarining darajasi aniqlanadi.
2. Shundan kelib chiqqan holda, mahsulot, yig'ish, yig'ish sifatiga qo'yiladigan talablar funksional, ekologik va estetik xususiyatlar darajasiga va ularning optimal chidamliligiga muvofiq belgilanadi.
3. Kerakli geometrik, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlardan qismlarning sirt qatlami sifatini tanlash, ularga erishish ishlab chiqarishda ham, foydalanishda ham noan'anaviy yechimlarni talab qiladi.
4. Mahsulotning zarur funksional, estetik va ekologik xususiyatlarini olishga qodir bo'lgan noan'anaviy jarayonning ishlash darajasining an'anaviy mezonlarini aniqlash.
5. An'anaviy va noan'anaviy mexanik ishlash usullari hamda texnik jihozlardan foydalanishga asoslangan yangi texnik jarayonni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni olib berish.
6. Jarayonning fizik-matematik modelini yaratish va ularni virtual, nazariy va eksperimental o'rganish.
7. Texnologik jarayonni ko'p parametrli optimallashtirish (fizik, texnologik, iqtisodiy mezonlar).
8. Texnik jarayon va uning texnik jihozlarini diagnostika qilish tizimlarini yaratish.
9. Texnologik jarayonni rivojlantirish.
10. Mahsulotning funksional, estetik, iqtisodiy xususiyatlarining haqiqiy darajasining talab qilinadigan talablarga muvofiqligini baholash.

Shubhasiz, ilmni talab qiluvchi texnologiyalarning muhim xususiyati loyihalash, ishlab chiqarish va yig'ishning barcha jarayonlarini fizik, geometrik va matematik modellashtirish, jarayon modellari yoki uning tarkibiy qismlarini har tomonlama tahlil qilish asosida kompyuter boshqaruviga asoslangan kompleks avtomatlashtirishdir.

Ko'rib chiqilayotgan xususiyatning mavjudligi uning kompyuter-intellektual

muhitiga tizimli yondashuvni talab qiladi, ya'ni, CAD/CAM tizimiga o'tish. Shu tarzda, moslashuvchanlik va avtomatlashtirish, aniqlik va mahsuldorlikning kombinatsiyasiga erishiladi.

Tizimli yondashuv alohida matematik modellardan emas, balki ajralmas parametrik va tizimli optimallashtirishga ega bo'lgan o'zaro bog'liq modellar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Masalan, parametrik optimallashtirish o'lchovli ishlov berish jarayonining bir qator xususiyatlarini, birinchi navbatda, energiya xarajatlarini, kesishning qalnligini, kesish kuchlarini va harorat darajasini, oksidlanish jarayonlarining intensivligini va boshqalarni minimallashtirish maqsadini ko'zlaydi.

Ilmiy raqobatbardosh texnologiyalar nisbatan tor o'ziga xos shartlar va talablar diapazoni uchun yuqori darajadagi optimallikni talab qiladi. Bunday optimallikning asosi faqat ushbu sohadagi chuqur maxsus tadqiqotlar, avtomatlashtirilgan ilmiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqish, shu jumladan jahon tajribasidan foydalanish, optimallashtirishning maxsus usullari, aniqlikka erishish usullari, funktsional xususiyatlarni texnologik ta'minlash va boshqalar bo'lishi mumkin.


### *O'lchovli ishlov berish texnologiyasi*

Ilm-fanni talab qiladigan texnologiyalarda muhim rolni texnik qo'llab-quvvatlashda o'ynaydi, ular doirasida asbob-uskunalar, asboblar, moslamalar, diagnostika va nazorat qilish tizimlarining aniqligi amalga oshirishning asosiy shartlari hisoblanadi. Bularning barchasi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari doirasida sodir bo'ladi, masalan, o'lchovli ishlov berish texnologiyasi (2.2-rasm), birinchi navbatda, yangi texnik jarayonlarni yaratish, aniq uskunalar va texnologik ta'minot, texnologik jarayonlarni qurishning yangi shakllari. Bu sohalarning har birining rivojlanish natijalari fanning so'nggi yutuqlari va unga bog'liq bo'lgan texnika sohalari bilan uyg'unlashgan holda ilmiy tadqiqotlarni talab qiluvchi texnologiyalarning tabiiy manbalari hisoblanadi.

Shu bilan birga, an'anaviy texnologiyalar kabi yuqori texnologiyali raqobatbardosh texnologiyalarning texnologik jarayonlarini yaratishdagi taraqqiyot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, unumdorlik va sifatni oshirishning eng yuqori sur'atlari bilan tavsiflanadi.

Ilm talab qiladigan texnologiyalarning eng muhim xususiyati ularning kadrlar bilan ta'minlanishidir. Bunday texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish hayot tsiklining barcha bosqichlarida oliy ma'lumotli mutaxassislarni talab qiladi. Deyarli barcha mutaxassislar, jumladan, mexanizatorlar va operatorlar ham oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bu ko'plab Yaponiya, Amerika va G'arbiy Yevropa firmalari misolida yaqqol ko'rindi.

Shunday qilib, mashinasozlik texnologiyasi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga – yangi ilmni talab qiluvchi texnologiyalarga yaqinlashdi, ularni amalga oshirish mashinasozlarga raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini beradi.



**2.2-rasm. Materiallarga ishlov berishda ilmga boy raqobatbardosh texnologiyalar bazasi**

### Nazorat savollari

1. Ilmiy tadqiqot uchun raqobatbardosh texnologiyalar nima?
2. Ilmiy tadqiqotlarni texnik qo'llab-quvvatlash nimadan iborat?
3. Mashinasozlikda ilmga boy yo'nallishlar qaysilar?
4. Texnologik jarayon nima?
5. Zamonaviy texnologik jarayonlarga qaysi jarayonlarni misol qilsa bo'ladi?
6. Ekologik yo'naltirilgan ishchi jarayon nima?

*7. Progressiv uskunalar va texnologik ta'minot vositalari nima?*

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. А.Г. Суслов, А.М. Далский. (2002). Научные основы технологии машиностроения. Машиностроение, Москва, 689с.
2. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>
3. Суслов А.Г. Технология машиностроения - М: Машиностроение. 2018.
4. Базров Б.М. Основы технологии машиностроения – М: Машиностроение, 2005.-736 с.
5. Проектирование технологий автоматизированного машиностроения. Под ред. Соломенсова Ю.М. М.: «Высшая школа», 1999.

### **3-mavzu: Mashinasozlik ishlab chiqarishda zamonaviy, avtomatlashtirilgan texnologik jihozlar.**

**Reja:**

1. RDB stanoklarning konstruktiv elementlari
2. Teskari aloqa datchiklari
3. Qadamli elektr dvigateli
4. Asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari

#### **2.1. RDB stanoklarning konstruktiv elementlari.**

RDB stanoklarning asosiy bazaviy uzellari yuqori aniqlikda, bikrlik, titrashga bardoshli, ishonchli qilib tayyorlanadi, chunki ular qimmatbaho avtomatlashtirilgan jihozlar bo‘lib, sutkada ikki va undan ortiq smenada ishlashi talab etiladi.


*Staninalar.* RDB stanoklarning staninalari asosiy bazaviy element hisoblanadi, chunki ularda stanok yo‘naltiruvchilari joylashtiriladi. Staninalarning quyidagi turlari uchraydi.

1. Cho‘yan staninalar, toblangan va jilvirlangan po‘lat yo‘naltiruvchilar, rolikli dumalash va gidrostatik yo‘naltiruvchilar bilan jihozlanadi.
2. Payvand staninalar va ustunlar, ko‘pchilik hollarda to‘g‘ri burchakli shakldagi toblangan yo‘naltiruvchilarga ega, maxsus texnologiyada payvandlash va termoishlov berish olingan aniqlikni uzoq vaqt saqlashni ta‘minlaydi.
3. RDB tokarlik stanoklar staninalari qirindi chiqishini ta‘minlash uchun yo‘naltiruvchi tekislikning vertikal yoki qiya holatiga ega.

*Yo‘naltiruvchilar.* Yo‘naltiruvchilarning sirpanish, dumalash va kombinatsiyalangan turlari mavjud. RDB stanoklarda dumalash va kombinatsiyalangan yo‘naltiruvchilar eng keng tarqagan. Bunday yo‘naltiruvchilarda yirik aylanib keladigan toblangan po‘lat plankalar foydalaniladi, planka bo‘yicha oldindan yuklangan rolikli tayanchlar harakatlanadi (aylanib keladigan rolikli yo‘naltiruvchilar). Rolikli tayanchlar (ularni ba’zida tanketkalar deb ham ataladi) har xil rostlovchi qurilmalar yordamida stanina (11) da o‘rnataladi (1-rasm).

Tayanch (1) pona (2) da mahkamlangan, pona bo‘ylama yo‘nalishda ikkita vint (15) yordamida siljishi mumkin. Ikkinci tayanch staninaning boshqa tomonidan joylashgan va vint (8) yordamida siljishi mumkin, u esa ponali tayanch (5) bilan bog‘langan. Ponalar (2) va (5) ponali tayanchlar (3) va (7) ga tayanadi, ular esa yon tomonlardan (14) va (9) bilan cheklangan va sferik kallakli shtiftlar (10,13) ga tayanadi. Tayanchlar orasida qistirma (4) joylashgan.


Yig‘ilgan uzelni yakuniy rostlangandan so‘ng bushliq (12) tez qotadigan suyuq plastmassa bilan to‘ldiriladi. U qotganidan so‘ng ponalar (2) va (5) larni siljitish yo‘li bilan uzel bikrligini ta‘minlaydigan taranglik yaratiladi.



**3.1-rasm. Staninada rolikli tayanchlarni o‘rnatish sxemasi**

Dumalash yo‘naltiruvchilarining kamchiligiga konstruksiyaning qimmatligi va harakat yo‘nalishida dempferlash xususiyatining pastligi kiradi.

Detallarga ishlov berishda ba’zi hollarda, stanokning harakatlanuvchi elementlarini mahkamlash kerak bo‘ladi. Bu esa har xil siqish qurilmalari bilan amalga oshiriladi. 2623PMFU stanokda foydalanilgan (2-rasm) trubasimon siqqich original konstruksiyaga ega. Moy bosimi ostida truba (1) deshaklsiyalanadi va planka (2) orqali taranglikni vujudga keltiradi va stanokning bajaruvchi organi (3) ni stanina (7) ga nisbatan qotiradi. Trubasimon siqqich qotirishning tezkorligi va bikrligini ta’minlab ternalishni oldini oladi. RDB stanoklarda boshqa turdag'i: gidrostatik, aerostatik va h.k. yo‘naltiruvchilar ham keng qo‘llaniladi.



**3.2-rasm. Kombinatsiyalangan yo‘naltiruvchilar (dumalash-sirpanish):** 1 – trubka; 2 – planka; 3 – harakatlanuvchi stol; 4 – stolning sirpanuvchi yo‘naltiruvchisi; 6 – siqish plankasi; 7 – staninaning o‘rnatilgan yo‘naltiruvchisi; 8 – stanina.

*Bosh yuritma.* RDB stanoklarning bosh yuritmalariga quvvat bo‘yicha yuqori talablar qo‘yiladi va RDB qurilmasidan boshqarishda tezlikni pog‘onasiz rostlashni

ta'minlashi talab etiladi. Bosh yuritmaning har xil turlari: asinxron elektrodvigatelli, rostlanadigan doimiy tok elektrodvigatelli, gidrokuchaytirgichlar bilan birga qo'llanadigan elektrodvigatelli turlaridan foydalanadi.

*Shpindel.* RDB stanok shpindelining bikrligi va aylanish aniqligiga yuqori talablar qo'yiladi. Stanok shpindel uzellarida issiqlikning chiqib ketishiga katta ahamiyat beriladi, issiqlik odatda maxsus moylash va sovitish sistemasi bilan amalga oshiriladi.

*Surish yuritmasi.* RDB stanoklar surish yuritmalarini quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- surishlarni keng diapozondagi rostlashga 1 dan 10000 mm/min ega bo'lishi;
- kinematik zanjirlarining yuqori bikrligiga va yurish ravonligiga, ayniqsa, sekin harakatlarda, ega bo'lishi;
- oshirilgan xizmat muddatiga ega bo'lishi va RDB qurilmasi tomonidan distansion boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

RDB stanoklarda surish yuritmalarining quyidagi turlari foydalaniladi:

- elektromagnit muftalar bilan qayta ulanadigan mexanik surishlar qutisi orqali, asinxron elektrodvigatelli yuritma;
- aylanishlar chastotasini keng diatirqishonda rostlashni ta'minlaydigan o'zgartirgichga (masalan, tiristorli) ega doimiy tok elektrodvigatelli yuritma;
- yuqori energetik doimiy magnitlardagi past aylanishlarga ega (1000 ayl/min) dvigatellardan foydalanadigan elektrik yuritma, bunday yuritma RDB metall kesish stanoklarda ko'p hollarda oraliq reduktorlarsiz bezosita yuritish vinti bilan ulanadi;
- gidrotsilindr yoki gidrodvigatelli gidroyuritma, bunda gidrodvigatel odatda yuritmaning oxirgi zvenosiga o'rnatiladi (ko'pchilik hollarda, bu zveno dumalash vinti gayka juftligi).

Dumalash vint-gayka uzatmalarini RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo'llanadi, chunki sirpanish vintli juftliklariga nisbatan ularning FIK ancha yuqori, ularning tinch va harakatdagi ishqalanish koeffitsientlari deyarli bir xil bo'lsada, lekin ishqalanish koeffitsienti harakat tezligidan bog'liq emas. Tirkishni tanlashda uzatma tirkishsiz juftlikni hosil qilib, yetarlicha yuqori o'qiy bikrlikka ega bo'ladi. 0 sinf vintli uzatmalarida 300 mm da yig'iladigan xatolik 3 mm ni va 1000 mm da 7 mkm ni tashkil etadi, 1 sinfdagilarda esa 10 mkm 300 mm ga, 20 mkm 1000 mm ga teng.

RDB stanoklar surish yuritmalarida taranglikni avtomatik rostlaydigan uzatmalar ham qo'llanadi. Bu esa tez harakatlarda (20 m/min) taranglikni kamaytirib qizishni kamaytirish ishchi harakatlarda esa taranglikni oshirib, yuqori bikrlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. O'zicha o'rnatiladigan gaykali konstruksiyalar ham foydalaniladi.

Adaptiv boshqarishni ta'minlash maqsadida qirqish kuchini o'qiy tashkil etuvchilarini o'lchash datchiklari bilan jihozlangan surish yuritmalarini ishlab chiqilgan. Sharikli juftlikdan tashqari og'ir RDB stanoklar surish yuritmalarida gidrostatik vint-gayka uzatmalarini ham qo'llanadi [12].

## 2.2. Teskari aloqa datchiklari.

Hozirgi vaqtda RDB stanoklarning barchasi yopiq boshqarish sistemalari bo'lib, teskari aloqa datchiklariga ega. RDB stanoklarda turli xil konstruksiyadagi datchiklar:

magnit; fotoelektrik; induksion; elektrik; optik; ultratovush; lazerli va h.k. qo'llaniladi. Ulardan asta-sekin eng qulaylari ajralib chiqmoqda.

Teskari aloqa datchiklari chiziqli va aylanali turlarga bo'linadi. Chiziqli turlariga chiziqli induktosin (0,01 mm) va optik shkala (0,001 mm), aylanali turlariga aylanali induktosin (0,01 mm) va aylanuvchi transshakltor, yoki rezolver (0,01 mm) kiradi. Keyingi vaqtida jadal suratlarda interferometr asosidagi lazerli datchiklar 0,001 mm yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, ular aniq RDB stanoklarda qo'llanadi.

*Chiziqli induktosin* (2, a-rasm) stanokning quzg'almas qismiga bikr mahkamlangan chizg'ich I va stanokning qo'zg'aluvchi qismi bilan birga harakatlanadigan slayder II dan iborat.


Induktosin chizg'ichsi asosi bo'lib izolyasion material yoki alyuminiydan tayyorlangan detal (1) xizmat qiladi. Bu detal izolyasion material bilan qoplanib, unda mis chulg'am (3) (meandr qadami 2 mm bilan) o'raladi. Mis chulg'am ustidan lak qatlami (4) qoplanadi. Slayder II ekran (5) bilan jihozlangan bo'lib, u mis chiziqchalardan iborat. Slayderda ikkita S1-S3 va S2-S4 pechatlangan chulg'amlar bajarilgan, ular bir-biriga nisbatan 1/4 qadamga yoki faza bo'yicha  $90^0$  siljitelgan (3,b-rasm).

Slayder stator bo'lib, uning chug'amlariga chastotasi 4000 Gs o'zgaruvchan tok beriladi. Induktosin chizg'ichi rotor bo'lib, uning chulg'amidan sinusoidal kuchlanish ko'rinishidagi  $U_a$  signal olinadi (1.7,d-rasm).

Slayder magnit maydoni boshidan oxirgacha harakatlanadi va boshiga qaytadi, va yana oxirgacha boradi. Chizg'ich induksiyalangan kuchlanish fazasidagi siljishi chizg'ich chulg'amining slayder chulg'amiga nisbatan holatiga bog'liq. Slayderning siljishi davriy ravishda faza siljishini minimumdan maksimumgacha o'zgarishiga olib keladi; bu esa faza siljishlarini impulsiga (kodga) o'zgartirish sistemasida mos elektr signal impulsalarini ta'minlaydi. Ixtiyoriy vaqt oraliqlarida hisoblagich aniqlangan impulsar summasi stanok bajaruvchi organining harakatini beradi.

*Optik shkala* – bu chiziqli optik o'lcham sistemasi induktosinga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. U ifloslanishlarga kam sezgir bo'lib, hisoblash kallagi va chizg'ich orasidagi masofani rostlash aniqligiga yuqori talablar qo'ymaydi. Sistemaning ishlashi o'zgartirgich fotodindlari qaytargan nurni hisoblashga asoslangan.

*Aylanuvchi transshakltor (rezolver)* – bu rotoring aylanish burchagini sinusoidal tokka o'zgartiruvchi o'zgaruvchan tok mikromashinasidir. Aylanuvchi transshakltor statori (3,e-rasm) ikkita bir fazali chulg'amlar S1 – S2 va S3 – S4 ga ega bo'lib, ular diffuzorga nisbatan  $90^0$  siljitelgan.



**3.3-rasm. Teskari aloqa datchiki:** a-d – chiziqli induktosin; e – aylanuvchi transshaklitor.

Rotor ham ikkita chulg‘amga ega bo‘lib, ( $R_1 - R_2$  va  $R_3 - R_4$ ), ular ketma-ket ulangan. Magnit o‘tkazgich elekrotexnik po‘lat listlaridan yoki permalloydan tayyorlanadi. Rotor va statorlarda bir tekis ariqchalar joylashtirilgan bo‘lib, ularda o‘zaro perpendikulyar chulg‘amlar o‘rnatilgan. Aylanuvchi transshakltorlarda birlamchi chulg‘amlar ko‘p hollarda, stator chulg‘ami hisoblanadi, ikkilamchi esa – rotor chulg‘ami bo‘lib, harakatlanuvchi element bilan bog‘langan bo‘ladi. Rotoring burilishida undan sinusoidal kuchlanish olinadi.

Rotor chulg‘amidan tokni olish kontakt xalqa va cho‘tkalar yordamida amalga oshiriladi. Aylanuvchi transshaklording stator chug‘amlari 400, 1000, 2000 va 4000 Gs chastotadagi o‘zgaruvchan tokka ulanadi. Ulangan tokni o‘zgartirish qonuni sinusoidal yoki to‘g‘ri burchakli bo‘lishi mumkin. Stator chulg‘amlarini o‘zgaruvchan tok tarmog‘iga ulanganda aylanuvchi magnit maydoni hosil bo‘ladi. 3,e-rasmdagi strelka ayni momentda rotorda o‘tadigan natijaviy magnit oqimini ko‘rsatadi. Magnit maydoni stator chulg‘amiga ulangan tok chastotasiga mos tezlik bilan aylanadi. Aylanuvchi magnit maydoni rotor chulg‘amida amplitudasi deyarli doimiy bo‘lgan o‘zgaruvchan kuchlanish induksiyalaydi. Rotor chulg‘amida induksiyalangan kuchlanish chiqish signali bo‘lib, uning fazasi statorga sinusoidal kirish signaliga nisbatan siljigan bo‘ladi. Fazalarning bunday siljishi rotoring holatidan bog‘liq bo‘ladi. Agar rotor vertikal joylashgan bo‘lsa, unda musbat maksimal kuchlanish induksiyalanadi, uning sinusoidal chulg‘ami ham maksimal musbat cho‘lg‘atishga ega bo‘ladi. Shunday qilib, rotor valining burilishida, uning mexanik aylanish burchagi elektrik, ya’ni fazalar siljishiga aylantiriladi.

Ko‘p qutbli aylanuvchi transshaklolar keng qo‘llanadi. O‘n qutbli aylanuvchi transshaklording ham ishslash prinsipi xuddi shunday. Bu ikki aylanuvchi transshaklarning farqi mexanik aylanish burchagiga nisbatan fazalarning elektrik siljishidan iborat bo‘ladi.

## 2.3. Qadamli elektr dvigateli

Bunday dvigatellar RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo'llanadi. U jamlangan chulg'amli reaktiv rotorli sinxron mashinadir. MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan metall kesish stanoklar surish yuritmalari uchun qadamli dvigatellar (ShD-4, ShD-5) uch fazali sxema bo'yicha quriladi. Bunday dvigatelning ishlash prinsipi quyidagicha. Stator (1) (4,a-rasm) uch juft qutb va chulg'amlarga (I-III) ega. Rotor (2) ham uchta seksiyaga bo'lingan, lekin ular aylana bo'yicha qutb oralig'i masofasining 1/3 qismiga siljiltilgan. Shunday qilib rotoring birinchi seksiyasi qutbi stator qutbi bilan to'g'ri turadi, ikkinchi seksiya qutbi stator qutbiga nisbatan 1/3 qismiga, uchinchi seksiya qutbi esa qutb oralig'i masofasining 2/3 qismiga siljigan bo'ladi.

Agar statorning birinchi fazada chulg'amiga (I) doimiy tok ulansa dvigatel rotorini shunday holatni egallaydiki, bunda rotoring birinchi seksiya qutbi stator qutbining qarshisida o'rnatiladi. Agar so'ngra birinchi fazadagi tokni uzib, ikkinchi fazaga tok berilsa, rotor 1/3 qadamga buriladi (4, b-rasm).


I, II, III obmatkalarga ketma-ket tok berilsa, rotor soat strelkasi bo'yicha aylanadi (4,d -rasm). Agar fazalarni teskari tartibda tokka ulansa rotor teskari tarafga aylanadi.

Rotoring burilish burchagi  $1,5^{\circ}$  yoki  $3^{\circ}$  ni tashkil qilishi mumkin, olti kontaktli qo'shgich bilan jihozlangan ShD-4 dvigatelida impulslarining maksimal chastotasi 800 Gs. Bunday dvigatel impuls miqdori 0,01 mm bo'lganda 1200 mm/min gacha surish tezligini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda katta chastotali tok impulsiga ega qadamli dvigatellar ishlab chiqarilmoqda, ular 5-10 m/min surish tezligini ta'minlay oladi.

Ishlab chiqariladigan qadamli dvigatellarning quvvati uncha katta bo'limganligi uchun burovchi momentni kuchaytirish gidravlik kuchaytirgichlar yordamida ta'minlanadi. Buровчи момент гидростансиясидаги moy оғими энергиясидан foydalanish hisobiga orttiriladi. RDB stanoklarda momentni gidrokuchaytirgichlari foydalaniladi. Улар qadamli elektrodvigatel va kichik inersiyali yuqori momentli gidroyuritmadan tashkil topgan bo'ladi.


Gidrokuchaytirgich kuzatuvchi boshqarishga ega aksial-porshenli gidromotordan iborat (5,a-rasm). U qadamli dvigatel beradigan burovchi momentni kuchaytirishni ta'minlaydi. Gidromotor rotori (3) da porshenlar (2) joylashgan bo'lib, ular o'qiy yo'nalishda harakatlanishi mumkin. Taqsimlovchi (4) ning yarim xalqa tirqishi R1 orqali dvigatelga kelib tushadigan moy bosimi ostida porshenlar (2) tayanch sharikopodshipnik xalqasi (1) ga tiraladi. Xalqa qiya joylashgan bo'lib, porshenlar podshipnik hosil qilgan qiya tekislik bo'yicha sirpanib, rotorni rasmida ko'rsatilgan strelka bo'yicha burilishga majbur qiladi.

Rotor A holatni egallaganda unga moyning oqib kirishi to'xtaydi, chunki rotor teshigi taqsimlagichning teshikni yopish elementiga to'g'ri keladi. Keyingi burilishda moy taqsimlagichning yarim xalqa tirqishi R2 orqali oqib chiqadi. Shunday qilib, har bir porshen, rotoring yarim aylanishida ishchi yo'lini bajaradi, ikkinchi yarim aylanishida esa teskari (salt) yurishni bajaradi.



**3.4-rasm. Qadamli dvigatel:** a – qo‘rilma; b, d – ishlash prinsipi

Rotorning aylanish yo‘nalishini o‘zgartirish uchun moy bosim ostida tirkish R2 dan kiritilib tirkish R1 dan oqib chiqariladi. Moy oqimini boshqarish qadamli dvigatel tomonidan boshqariladigan kuzatuvchi qurilma vositasida amalga oshiriladi. Bu dvigatel vali kuzatuvchi qurilma plunjeri bilan birlashtirilgan. Plunjerdan xalqasimon ariqchalar K1 va K2 hamda bo‘ylama tirkishlar P1 va P2 mavjud. Plunjer gidrokuchaytirgich vali bilan birlashtirilgan vtulka 5 da o‘rnatilgan. Vtulka (5) xalqasimon ariqchalari V1, V2, V3, V4 bo‘lgan korpus (7) ga kiydirilgan.



**3.5-rasm. Burovchi momentni gidrokuchaytirgich.**

Xalqasimon ariqcha V2 ga kanal D bo‘yicha bosim ostidagi moy beriladi; ariqcha V2 moyni chiqib ketishi uchun xizmat qiladi (kanal S); ariqchalar V1, V4 taqsimlagich


(4) bo'shlig'idagi kanallarga ulangan. 5,*a*-rasmda ko'rsatilgan holatda plunjер (6) gidrokuchaytirgichga moy kirishini yopib turadi va u ishlamaydi. Lekin moyni gidronasosdan kanal D, kuzatuvchi qurilma korpusi ariqchasi, vtulka (5) teshigi O1 bo'yicha plunjер tirqishii P1 ga va so'ngra ariqchalar K1, V1 va taqsimlagich (4) orqali gidrokuchaytirgich rotoriga tushib, uni plunjер aylanadigan tomonga burishi uchun plunjerni juda kichik burchakka burish yetarli bo'ladi (5,*b*-rasm). Moyning gidrokuchaytirgichdan chiqib ketishi xalqasimon ariqcha V4, plunjер tirqishi P2, vtulka (5) teshigi O2, ariqcha V3 va kanal S orqali ta'minlanadi (5,*d*-rasm). Agar plunjerni qadamli dvigatel yordamida to'xtovsiz aylantirilsa, u bilan bir vaqtда (undan orqaroqda qolib) gidrokuchaytirgich rotorи ham aylanadi. Plunjер to'xtaganda vtulka teshiklarini yopib, moy harakatini to'xtatadi va gidrokuchaytirgich rotorи ham darhol to'xtaydi. Gidrokuchaytirgichni teskari tomonga aylantirish uchun qadamli dvigatel valining aylanish yo'nalishini o'zgartirib, kuzatuvchi qurilmada moy oqimi yo'nalishini teskari yo'nalishga o'zgartirish yetarli.

*Kuzatuvchi elektr yuritma.* Kuzatuvchi yuritmalarda qo'llanadigan elektr dvigatellarning o'ziga xos xususiyati – bu aylanish yo'nalishini o'zgartirishi bilan birga aylanish tezligini keng diapozonda ravon rostlash imkoniyatidir. Shu maqsadlarda tezlikni keng diapazonda ravon rostlashni ta'minlash bilan birga, yetaricha yuqori FIK ega bo'lган doimiy tok elektrodvigatellari keng foydalaniladi. RDB stanoklar bosh harakat mexanizmlari uchun rostlanadigan doimiy tok elektrodvigatellari qatorning ixtiyoriy maxraji bo'yicha qirqish rejimlarini tanlash, adaptiv boshqarishni qo'llash bilan tezlikni qirqish vaqtida korreksiyalash, tezlikni o'zgartirishni boshqarishni soddalashtirish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Yangi modeldagи qator stanoklarda bosh harakat mexanizmlarida tiristorli o'zgartirgich bilan jihozlangan yuritmalar o'rnatilgan. RDB stanoklarda tezkor doimiy tok elektrodvigatellaridan tashqari rostlanadigan o'zgaruvchan tok elektr yuritmalari ham qo'llanadi [7, 12, 16].

## 2.4. Asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari

RDB ko'p operatsiyali stanoklarning asosiy konstruktiv xususiyatlaridan biri bu ularda asboblarni avtomatik almashtirish qurilmasining mavjudligidir. Umumiy holda, asboblarni almashtirishni avtomatlashtirish uchun ikki xil asosiy elementlardan tashkil topgan qurilma va mexanizmlar sistemasi: bir yoki bir nechta zagotovkalarga ishlov berish uchun yetarli bo'lган asboblarni saqlash magazini; asbobni magazindan stanok shpindeliga va teskari uzatish uchun asbobni avtomatik almashtirish qurilmasi foydalaniladi.

*Magazin uyasi va stanok shpindelida asboblarning o'qdosh joylashishida ularni almashtirish uchun magazin uyasi o'qi shpindel o'qi bilan mos kelguncha magazinni aylantirib, asbobni magazindan chiqarib, shpindelda mahkamlash yetarli. Ish bajarib bo'lган asbobni magazinda o'rnatish teskari tartibda amalga oshiriladi. Bunday qurilmalarning ishslash prinsipi 6-rasmda ko'rsatilgan.*



### **3.6-rasm. Stanok shpindeli va magazinida asboblarning o‘qdosh joylashishida ularni almashtirish sxemasi.**


Qurilmada 12 ta asbobga mo‘ljallangan magazin qiya burilish burchagiga ega bo‘lgan yirik baraban shaklida bajarilgan. Asboblarni almashtirish vaqtida pastki holatda joylashgan magazin uyasi o‘qi shpindel Sh o‘qi bilan muvofiqlashtirilgan. Pinol pastga harakatlanganda shpindel asbob to‘g‘rilagichdan tutib, uni zagotovka tomon suradi. to‘g‘rilagich shpindelda avtomatik siqiladi. Pinolning yuqori holatga harakatlanishida asbob to‘g‘rilagichi asbob bilan birga shpindeldan avtomatik ajralib magazin uyasida qoldi.

Shpindelning yuqori holatida magazin aylanib, dasturda berilgan keyingi asbobni izlash bajariladi. Burilish burchagi kerakli asbob joylashgan uya nomeri bilan aniqlanadi. Magazinning burilish vaqtini mashina vaqtini bilan birlashtirilmagan, ya’ni to‘xtab turgan shpindel holatida bajariladi. Ba’zi stanoklarda magazin (revolver kallak) shpindel bilan birgalikda uning ishchi surishida harakatlanadi.


Asboblar magazinini stanok ish zonasidan tashqarida joylashtirish uchun, uni shpindel babkasidan yuqoriga ko‘tarishadi, boshqa tomonga o‘rnatishadi, ba’zi hollarda ustundan alohida o‘rnatiladi. Barcha bunday hollarda *asbob o‘qi magazin va stanok shpindelidan bir xil emas, o‘zaro parallel bo‘ladi* (7-rasm).

*Asboblari magazin M da vertikal joylashtirilgan stanoklarda* (8- rasm) asboblar buriladigan vtulka uyalar G da mahkamlangan. Asboblarni almashtirish pozitsiyasida vtulkalar gorizontal holatga buriladi va asbob o‘qi shpindel o‘qi bilan parallel holatga o‘tadi. Asbobni almashtirish sikli oddiy.


Asboblarni almashtirishni avtomatlashtirishni ko‘rib o‘tilgan qurilmalarida asboblarni almashtirish shpindel babkasining faqatgina berilgan ma'lum bir holatida amalga oshirilishi mumkin. Bunday kamchiliklar metall qirqish stanoklar uchun *gorizontal shpindelli diskli yoki zanjirli magazinli asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalarida* kuzatilmaydi (9-rasm). Tutqichlar avtooperator A korpusi karetkasidan siljib chiqishi mumkin, karetka esa stanok ustunidan yuqoriga va pastga hamda magazin M va shpindel Sh o‘qiga parallel yo‘nalishda harakatlanishi mumkin.



**3.7-rasm. Stanok shpindeli va magazinda asboblarning parallel joylashishida ularni almashtirish sxemasi**




**3.8-rasm. Buriladigan avtooperator bilan asboblarni almashtirish qurilmasi**



**3.9-rasm. Zanjirli magazinli stanoklarda asboblarni almashtirish sxemasi**

*Kutish pozitsiyasiga ega asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari* alohida guruhni tashkil etadi (10-rasm). Bunday qurilmalarning oraliq uyalarida kutish pozitsiyasida (KP), shpindelga uzatishga tayyorlangan yoki ishlab bo‘lgan, magazin uyasiga qaytarishni kutib turgan asbob joylashishi mumkin. Bunday stanoklarda magazin ustunning yon tomonida joylashgan bo‘lib, magazin va shpindeldagi asboblarning o‘qi o‘zaro perpendikulyar bo‘ladi. Shuning uchun kutish pozitsiyasi vertikal o‘qqa nisbatan buriladigan uya ko‘rinishida bajarilgan. Asosiy A va qo‘sishicha QA avtooperator o‘zaro perpendikulyar tekisliklarda harakatlanadi.



**3.10-rasm. Asboblarni kutish pozitsiyasigi ega bo‘lgan qo‘rilmalar bilan almashtirish sxemasi**

### Nazorat savollari

1. Baza tushunchasi nimani bildiradi?
2. Bazalash deganda nimani tushunamiz?
3. Bazalash sinfi nechta va qaysilar?

4. Konstruktorlik bazani qanday tushunasiz?
5. Texnologik baza deb nimaga aytiladi?
6. O'lchash bazasi deganda nimaga tushuniladi?

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar:**

1. Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2012.1173
2. Maykl Fitspatrik Технология обработки с ЧПУ. The McGraw-Hill Companies, Americas, New York, 2019 <http://www.twirpx.com/file/1374005/>.
3. Митрофанов В.Г. и др. Основы автоматизатии машиностроительного производства. М.: Высшая школа, 2001.
4. Соломенцев Ю.М. и др. Автоматизация технологических процессов и приборов. М.: Высшая школа, 2001.

#### **4-mavzu. Mashinasozlik ishlab chiqarishda additiv texnologiyalar.**

##### **Reja:**

1. Additiv ishlab chiqarish.
2. AIC ning boshqa KM texnologiyalariga nisbatan joylashishi.
3. Additiv ishlab chiqarish texnologiyasining afzalliklari.
4. AIC texnologiyasining kamchiliklari.
5. Bozordagi istiqbollari.
6. 3D ishlab chiqarish (printing)
7. Jarayonning asosiy bosqichlari

**Tayanch iboralar:** Additiv ishlab chiqarish, 3D modellash, avtomobilsozlik, airokospnika, yuza qatlamlari

##### **Additiv ishlab chiqarish**

Additiv ishlab chiqarish, shuningdek, 3D bosib chiqarish (3D printing), tezkor prototiplash yoki erkin shaklda ishlab chiqarish sifatida ham tanilgan, "ishlov berish kabi subtractive ishlab chiqarish metodologiyasidan farqli o'laroq, odatda qatlam-qatlam bo'lgan 3D model ma'lumotlaridan ob'ektlarni yaratish uchun materiallarni birlashtirish jarayoni".

Metall kukunlari bilan Additiv ishlab chiqarish (AIC) dan foydalanish Evropada joylashgan ko'plab yetakchi kompaniyalari bilan yangi va rivojlanayotgan sanoat sektoridir. Bu avvalgidek nafaqat prototiplarni, balki murakkab metall to'r shaklidagi qismlarni ishlab chiqarish uchun mos jarayon bo'ldi.

Additiv ishlab chiqarish endi aerokosmik, energetika, avtomobilsozlik, tibbiyot, asbobsozlik va iste'mol tovarlari kabi turli sanoat tarmoqlarida ham dizayn, ham sanoat inqilobini amalgalash oshirish imkonini beradi.




Bathsheba Grossman tomonidan ishlab chiqilgan nozik metall detal (Courtesy of Höganäs AB - Digital Metal ®)



Gaz turbinasi demonstratori (diametri 250 mm va uzunligi 600 mm), funksiyalarni birlashtirish, qismlar sonini kamaytirish, og'irlilikni tejash va ishlash uchun Al-, Ti- va Ni-asosli kukunlari bilan selektiv lazer eritish orqali tayyorlangan qismlarni yig'ish orqali (Xushmuomalalik bilan) yasalgan.

ASTM F2792-10 standartiga ko'ra, Additiv ishlab chiqarish an'anaviy ishlov berish kabi kesib tashlaydigan ishlab chiqarish usullaridan farqli o'laroq, odatda qatlam-qatlam bo'lgan 3D model ma'lumotlaridan ob'ektlarni yaratish uchun materiallarni birlashtirish jarayonidir. Metallarni Additiv ishlab chiqarish texnologiyalari juda ko'p, shuning uchun quyidagi grafikda ko'rinish turganidek, turli xil atamalar va qisqartmalar ishlab chiqilgan. Ammo bugungi kunda Additiv ishlab chiqarish sanoat bozorlarida eng keng tarqalgan atama bo'lib, iste'mol bozorida 3D ishlab chiqarish ko'proq qo'llaniladi.




#### **4.1-rasm. AIC ning boshqa KM texnologiyalariga nisbatan joylashishi**

Additiv ishlab chiqarish boshqa kukun metallurgiyasi (KM) texnologiyalarini to'ldiradi.

Issiq izostatik presslash (HIP) singari, Additiv ishlab chiqarish kichik yoki o'rta seriyali detallarni ishlab chiqarish uchun ko'proq mos keladi. HIP jarayoni odatda bir necha yuz kilogramm bo'lgan massiv shaklidagi detallarni ishlab chiqarish uchun qo'llanilsa-da, Additiv ishlab chiqarish jarayoni bir necha kilogramm kichikroq detallar uchun ko'proq mos keladi va katta dizayn erkinligi tufayli murakkab metall detallarni ishlab chiqarish uchun yaxshilangan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Metall inyeksiyon quyish (MIM) va press va sinterlash texnologiyalari ham aniq shaklli qismlarni ishlab chiqarish imkoniyatini taklif qiladi, ammo ular kichik detallarning katta seriyasi uchun tavsiya etiladi.



**4.2-rasm. Har xil PM texnologiyalarini detalning og'irligi yoki hajmi va ishlab chiqarish seriyasiga ko'ra joylashtirish**

### *Additiv ishlab chiqarish texnologiyasining afzalliklari*

Metall detallarni additiv ishlab chiqarish texnologiyalari ko'plab asosiy afzalliklarni taqdim etadi.

An'anaviy quyish va ishlov berish bilan solishtirganda dizayn erkinligi ortadi

Yengil konstruktsiyalar, panjara dizaynidan foydalanish yoki boshqa cheklowlarsiz material faqat kerakli joyda bo'lgan qismlarni loyihalash orqali amalga oshiriladi.

Murakkab ichki kanallar yoki bir nechta detallarni bittada qurish kabi yangi funktsiyalar

To'g'ri shaklli jarayon xom ashyoni kamroq iste'mol qilishni anglatadi, mexanik ishlov berishdan 25 martagacha kamroq, qimmat yoki ishlov berish qiyin bo'lgan qotishmalarda muhim ahamiyatga ega.

Aniq shakl olish qobiliyati bir bosqichda murakkab detallarni yaratishga yordam beradi, shu bilan payvandlash, mahkamlash kabi yig'ish operatsiyalari sonini kamaytiradi.


Qoliplar va metallni shakllantirish yoki kesib tashlash vositalarini talab qiladigan boshqa an'anaviy metallurgiya jarayonlaridan farqli o'laroq, hech qanday asbob kerak emas.

Ishlab chiqarish tsikli vaqtqi qisqa: murakkab detallar additiv mashinalarda bir necha soat ichida qatlam-qatlam qilib ishlab chiqarilishi mumkin. Jarayondan keyingi ishlov berishning umumiyligi davri odatda bir necha kun yoki haftani tashkil qiladi va odatda bir necha oylik ishlab chiqarish tsikllarini talab qiladigan an'anaviy metallurgiya jarayonlaridan ancha qisqaroqdir.

Jarayon kichik seriyali detallarni ishlab chiqarish uchun tavsiya etiladi



Murakkab ichki kanallarga ega  
gidravlik prototip, (Manba: EU project  
**COMPOLIGHT**)




ITER uchun 316L vakuumli  
o'tkazgichning prototipi LBM  
tomonidan ishlab chiqarilgan, uni  
an'anaviy usullar bilan ishlab chiqarish  
mumkin emas.. (Courtesy of IK4-  
Lortek)



Ti6Al4V EBM tomonidan ishlab  
chiqarilgan sun'iy yo'l dosh antennasini  
topologiyani optimallashtirish orqali  
yaratilgan engil dizayn bilan qo'llab-  
quvvatlash. (Courtesy of Poly-Shape)



Osseointegratsiyani yaxshilash uchun  
yuqori o'ziga xos sirt dizayniga ega  
Ti6Al4V implant (asetabulyar  
chashka). (Courtesy of ARCAM)



Kukunli yotqizish texnologiyalari an'anaviy ishlab chiqarish bilan solishtirganda hech qanday xarajatsiz detallarni moslashtirish va dizayn murakkabligini oshirish imkonini beradi (Fraunhoferning izni bilan).

### *AIC texnologiyasining kamchiliklari*

AIC texnologiyalaridan to'liq foydalanish uchun ba'zi cheklovlarini bilish muhimdir:

**Detal o'lchami:** kukunli yotqizish texnologiyasi bo'lsa, detal o'lchami standart kukunli yotqizish tizimlari uchun 250x250x250 mm kabi kukunli yotqizish hajmi bilan cheklangan. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri energiya yotqizish (yoki lazerli metallni yotqizish) jarayonlari bilan detallarning o'lchamlari kattaroq bo'lishi mumkin. Ammo, kukun qatlamlarining past qalinligi tufayli, katta detallar yoki massiv detallarni yasashda bu juda sekin va qimmat bo'lishi mumkin.

**Ishlab chiqarish seriyasi:** AIC jarayonlari odatda unitar yoki kichik seriyalar uchun mos keladi va ommaviy ishlab chiqarish uchun tegishli emas. Ammo mashina unumdorligini oshirish va shu tariqa kattaroq seriyalarni ishlab chiqarish bo'yicha yutuqlarga erishildi. Kichik o'lchamli detallar uchun yiliga 25000 donagacha bo'lgan detal seriyasini ishlab chiqarishga allaqachon erishildi.

**Detal konstruksiyasi:** kukunli yotqizish texnologiyasida, o'tish burchagi 45° dan past bo'lganda olib tashnadigan maxsus supportlar tuzilmalari kerak bo'ladi.

**Materialni tanlash:** ko'plab qotishmalar mavjud bo'lsa-da, payvandlash mumkin bo'lмаган metallarni additiv ishlab chiqarish orqali ishlash mumkin emas va payvandlash qiyin bo'lgan qotishmalar maxsus usullarni talab qiladi.

**Materialning xususiyatlari:** additiv ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan detallar Z o'qi (qurilish yo'nalishi) bo'yicha anizotropiyani ko'rsatishga moyildir.

Bundan tashqari, 99,9% zinchlikka erishish mumkin bo'lsa-da, ba'zi qoldiq ichki g'ovakliklar bo'lishi mumkin. Mexanik xususiyatlar odatda quyma detallar uchun ustundir, lekin odatda ishlangan detallardan pastroqdir.

## *Bozordagi istiqbollari*

Additiv ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanish ko'plab sohalarda rivojlanmoqda:

*aerokosmik*

*energiya*

*tibbiy, xususan, jarrohlik implantlari va stomatologik uskunalarda ayniqsa, plastmassalarni mexanik ishlash uchun asboblar*

*avtomobil va transport*

*iste'mol tovarlari*

*va boshqalar.*


### *3D ishlab chiqarish (printing)*

3D ishlab chiqarish jarayoni ikki bosqichdan iborat bilvosita jarayondir.

3D qurish platformasida kukun qatlamini qo'llaganingizdan so'ng, kukun printer naychasi orqali ta'minlanadigan bog'lovchi tufayli aglomeratsiyalanadi.

Jarayon detallar ishlab chiqarilgunga qadar takrorlanadi, keyinchalik ular "yashil" bosqichda bo'lganligi sababli, kukun stolidan ehtiyotkorlik bilan olib tashlanishi kerak.


Metall detalning qotishi ikkinchi bosqichda, ajratish va sinterlash jarayonida, ba'zan esa infiltratsiya bosqichida sodir bo'ladi.



### *Jarayonning asosiy bosqichlari*

Metall detallarni additiv ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ishlab chiqarish 3D modellashtirishdan boshlanadi. Keyin ma'lumotlarni tayyorlash detallarning yo'nalishini aniqlash, qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarni joylashtirish va modelni

kesish uchun tashkil etilishi kerak. Detallarni ishlab chiqarishdan so'ng, keyingi ishlov berish operatsiyalari kerak bo'ladi.



### Nazorat savollari

1. Additiv ishlab chiqarish nima?
2. Additiv ishlab chiqarish turlari.
3. 3D ishlab chiqarish.
4. Additiv ihslab chiqarish qo'llaniladigan sohalar.
5. 3D ishlab chiqarish bosqichlari.
6. Additiv ishlab chiqarishning kamchiliklari
7. Additiv ishlab chiqarishning afzalliklari.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>
2. Суслов А.Г. Технология машиностроения.- М: Машиностроение. 2018.-
3. Базров Б.М. Основы технологии машиностроения. –М: Машиностроение, 2005.-736 с.
4. Проектирование технологий автоматизированного машиностроения. Под ред. Соломенцова Ю.М. М.: «Высшая школа», 1999.

## **5-MAVZU: MASHINASOZLIKDA ENERGIYA MANBALARI**

### **Reja:**

1. Zamonaviy transport vositalarining energetik qurilmalari.
2. Ichki yonuv dvigatellari.
3. Elektromobillar va gibrild kuch qurilmalari.
4. Energiya manbalarinig boshqa turlari.

**1. Zamonaviy transport vositalarining energetik qurilmalari.** Bugun birgina avtomobilsozlik sohasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, mamlakatimiz istiqlolga erishgandan so‘ng o‘z faoliyatini boshlagan Asaka avtomobil zavodida yengil avtomobillarning uchta rusumi ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sha paytda transport vositalari haqida gap ketganda birgina vodiyning Asaka shahri tilga olinar edi. Hozirda esa Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlari ham O‘zbekiston avtomobil sanoatining markazlari sifatida tilga olinmoqda. Mazkur zavodlar yengil va yuk avtomobillari, maxsus transport vositalarining *100 dan* ortiq turlarini ishlab chiqarmoqda. Bu esa o‘tgan davr mobaynida yurtimiz avtomobil sanoati qanday shiddat bilan rivojlanganini ko‘rsatadi.

*1996 yil 19 iyul* kuni Asakada «O‘zDaewooAvto» qo‘shma korxonasining ishga tushirishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida butunlay yangi - avtomobilsozlik tarmog‘iga asos solindi. Mazkur tarixiy sanadan boshlab, to bugungi kunga qadar Asaka avtomobil zavodida eng zamonaviy standartlarga javob beradigan, qulay, ishonchli va tejamkorligi jihatidan xorijiy avtoulovlar bilan raqobatlasha oladigan avtomashinalar ishlab chiqarilmoqda.

*2008 yil mart oyida* O‘zbekiston avtomobil sanoati hayotida muhim voqyea ro‘y berdi. Zavod negizida «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va «General Motors» kompaniyasi ta‘sischiligidagi, yangi «GM Uzbekistan» korxonasi tashkil etildi. Buning natijasida o‘zbek avtomobillari yanada zamonaviy va ko‘rkam avtomobil rusumlari hisobiga kengaya boshladи. «Chevrolet» brendi ostida «Captiva» rusumli avtmobil ishlab chiqarilishi boshlandi. Shu yilning noyabr oyida esa Asaka avtomobil zavodi konveyeridan o‘zida ko‘rkam va keng interyerni mujassamlashtirgan millioninchil avtomobil - «Lacetti» avtomobili chiqdi.

Qisqa davr ichida zavodda «General Motors» kompaniyasining yana ikki yangi global rusumi - «Spark» va «Kobalt» avtomobillarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *2012 yil 22 noyabrdagi «2013-2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi 1856-soni* qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining *2013 yil 21 fevraldagi «Xorazm viloyatida Damas»* rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi *51-soni*

qaroriga muvofiq viloyatda «GM Uzbekistan» aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyat filiali - «Xorazm avto» zavodi ishga tushirildi.

2014 yilning birinchi yarmida «Damas» va «Orlando» rusumli avtomobilarni yig‘ish boshlandi. Shu yilning o‘zida 30,7 ming dona «Damas» va «Orlando» avtomobilari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, yurtimizdagi kichik biznes egalari va xususiy tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida o‘tgan yilning oxirida «Labo» avtomobilini ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yildi.

Natijada, 1996 yilda uchta rusumdagи avtomobilarni ishlab chiqarish bilan o‘z faoliyatini boshlagan zavodda bugun o‘n bitta rusumdagи yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Ularning orasida yaqinda avtoishqibozlarga taqdim etilgan «Nexia» avtomobilining yangi avlodи mamlakatimiz mustaqilligining 25 yilligiga munosib sovg‘a bo‘ldi. Mazkur yangi avtomobil qulayligi, jihozlanishi, xavfsizligi bo‘yicha eng yuqori talablar darajasida ishlab chiqarilmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, ko‘p yillardan buyon yengil avtomobillarimiz aksariyat kompaniyalar tomonidan o‘tkaziladigan reytinglarda ommabopligi bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, «Matiz» avtomobili Rossiya bozorlarida ommabopligi va ko‘p sotilgani bilan «Yil avtomobili» degan nomni qo‘lga kiritib kelmoqda.

Avtomobilsozlikni rivojlantirish va uning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishda mahalliy lashtirish muhim o‘rin tutishi hech kimga sir emas. Bu iqtisodiyotni barqaror taraqqiy ettirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, ishlab chiqarishga yangi va samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish imkonini beradi.

Agar zavod tashkil topgan 1995-1996 yillarda «O‘z-DongJu», «O‘z-DongVon», «O‘z-TongXong», «O‘z-SeMyung» kabi 10 ga yaqin qo‘shma korxonalar faoliyat yuritgan bo‘lsa, hozirgi kunda «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi 35 dan ortiq yirik qo‘shma va mahalliy ishlab chiqarish korxonalari ishlab turibdi. Bundan tashqari, 300 dan ortiq xususiy korxonalar «O‘zavtosanoat» AK tizimidagi yirik korxonalar uchun zaruriy materiallarni yetkazib bermoqda.

2011 yili O‘zbekistonda «General Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda dvigatellar ishlab chiqaradigan yangi qo‘shma korxona faoliyati yo‘lga qo‘yilganini ham alohida ta‘kidlash joiz. Mahalliy lashtirish Dasturi asosida tashkil etilgan «General Motors Powertrain Uzbekistan» qo‘shma korxonasi yiliga 132 mingdan ortiq dvigatel ishlab chiqarish quvvatiga ega. Muhimi shundaki, «Yevro-5» Xalqaro ekologik standartlariga to‘la javob beruvchi o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan ushbu dvigatellar Asaka avtomobil zavodiga yetkazib berilishi bilan birga, qator xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda.

Yurtdoshlarimizning g‘urur va iftixoriga aylangan O‘zbekiston avtomobil sanoati haqida so‘z yuritar ekanmiz, transport va logistika xizmatini yangi bosqichga ko‘tarishda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy va shinam avtobuslar, kichik hamda o‘rtacha og‘irlilikdagi yuk tashuvchi avtomobillar, shuningdek, og‘ir yuklarni

tashuvchi katta yuk avtomobillarining alohida ahamiyatga ega ekani hech kimga sir emas.

### ***Silindrلarning nisbiy joylashuvi bo'yicha klassifikatsiyalash:***

***Bir silindrli dvigatel.***

***Qatorli dvigatellar:***

Barcha tsilindrler bir qatorda joylashgan qatorli dvigatellar.

***U-shaklidagi dvigatel***, bu ikki qatorli dvigatel bo'lib, ularning tirsakli vali mexanik ravishda zanjir yoki shesternyalar orqali bog'langan.

***V-shaklidagi dvigatel***, bir tirsakli valga ishlaydigan va bir-biriga burchak ostida joylashgan ikki qator silindrlerga ega.

***Oppozit dvigateli*-silindr bloklari  $180^{\circ}$  burchak ostida joylashgan ***V-simon*** dvigatelning maxsus holatidir.**

***H-shaklidagi dvigatel* (ing. *H dvigateli*)**

***VR-dvigatel*** - ajralish burchagi past bo'lgan va ajratilgan blok emas, balki silindrлarning o'ng va chap qirg'oqlari uchun umumiylilik silindr kallagiga ega bo'lgan ***V-simon*** dvigatel. Uni qator oralig'i deb ham atash mumkin.

***W shaklidagi dvigatel*** – ***V-shaklida*** joylashgan va bitta tirsakli valga ishlaydigan ikkita ***VR-dvigatel*** blokidan iborat. Ikkita alohida silindrli kallaklarga ega, har biri ikki qatorli silindrler uchun.

***Qarama-qarshi porshenli dvigatel*** - umumiy yonish kamerasi va alohida tirsakli val bilan bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ikkita silindr blokiga ega.

***Yulduzsimon kompanovkali dvigatel*** - bu porshenli ichki yonuv dvigateli bo'lib, uning silindrleri bir xil burchak ostida bir tirsakli val atrofida radial nurlarda joylashgan.

***Y- kompanovkali dvigatel*** - bu  $120^{\circ}$  burchak ostida joylashgan uchta silindr blokli radial dvigatelning maxsus holati.

***Rotativ dvigatel*** - silindrлarning (*odatda toq sonlarda keltirilgan*) aylanishiga asoslangan havo bilan sovutilgan radial dvigatel, karter va havo parragi bilan qo'zg'almas tirsakli val atrofida dvigatel ramasiga o'rnatilgan.

***Rotor porshenli dvigatel***- Dvigatelning o'ziga xos xususiyati - yuzasi epitroxoid (*rotoring boshqa shakllari va tsilindr ham bo'lishi mumkin*) bo'ylab yasalgan maxsus profilli silindr ichida aylanadigan Ryolo uchburchagi shakliga ega bo'lgan uchburchak rotordan (*porshen*) foydalanilgan.

2. Ichki yonuv dvigatellari (IYOD). Dvigatellarning: porshenli, rotor-porshenli, gaz turbinali, reaktiv, bug', stirinling va elektr kabi turllari mavjud.

Zamonaviy avtotransport vositalariga asosan porshenli ichki yonuv dvigatellari o'rnatiladi.

*Avtomobilarga o‘rnatiladigan porshenli ichki yonuv dvigatellari esa quyidagi turlarga bo‘linadi:*

– ishlatiladigan yonilg‘i turiga qarab: yengil suyuq yonilg‘ida (benzin) yoki (siqilgan, suyuq) gazda ishlaydigan dvigatellar, og‘ir suyuq yonilg‘ida ishlaydigan (dizel) dvigatellari;

– yonuvchi aralashma hosil qilish usuliga qarab, silindr tashqarisida aralashma hosil qiluvchi dvigatellar va silindr ichida aralashma hosil qiluvchi dizel (benzinli) dvigatellari;

– ishchi aralashmaning alangalanish bo‘yicha elektr uchquni bilan alangalanadigan benzinli (*gazli*) dvigatellar va siqish natijasida qizigan sof havoga purkalgan yonilg‘i zarralari ishqalanib o‘z-o‘zidan alangalanuvchi dizel dvigatellari.

Ish jarayonini hosil qilish usuliga qarab, to‘rt taktli va ikki taktli dvigatellarga bo‘linadi. Konstruktiv tuzilishi bo‘yicha 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 12 porshenli va ularning joylashuv tartibiga qarab (*qatorli*, *V-simon*, *yulduzli yoki oppozit*), gaz taqsimlash mexanizmining joylashuvi bo‘yicha – klapanlari yuqorida yoki pastda joylashgan va taqsimlash valining joylashuvi bo‘yicha – taqsimlash vali silindrlar blok ichida joylashgan yoki silindrlar blok kallagida joylashgan dvigatellarga bo‘linadi.

**IYOD qo‘llaniladigan sohalari.** IYODlarni juda ko‘p sohalarda qo‘llaniladi. IYODlar asosan mexanik yoki elektr energiyasi talab qilinadigan joylarda ham qo‘llanilishi mumkin.

#### ***IYODlar qo‘llaniladigan asosiy sohalari:***

– avtomobil transporti, traktorlar, qishloq xo‘jaligi mashinalari va boshqalarda;

– temir yo‘l transporti;

– dengiz va daryo floti, qayiqlar;

– yengil dvigatelli aviatsiyalar;

– yo‘l qurilish texnikasi (*ekskavatorlar*, *buldozerlar*, *skretcherlar*, *greyderlar*, *o‘ziyurar kranlar*, *kompressorlar*, *ko‘chma elektr stantsiyalari* va *boshqalar*);

– statsionar elektr stantsiyalar;

– burg‘ulash qurilmalari kompressorlarida, quvur nasoslarni haydashda;

– harbiy va maxsus texnikada.

IYODlar avtomobillarda, ko‘chma va statsionar stantsiya generatorlarida, nasoslarda, hatto robotlar uchun energiya manbai sifatida qo‘llaniladi.


Hozirgi vaqtida foydalaniladigan, shuningdek, avtomobil transporti uchun istiqbolli bo‘lgan dvigatellar orasida quyidagi turlarni qayd etish mumkin.

*Porshenli ichki yonuv dvigateli (IYoD).* Yonilg‘i aralashmasini yonish kamerasida yonishi natijasida hosil bo‘lgan issiqlik energiyasi, silindrdagi ishchi sohani (*gazsimon yonilg‘i mahsulotlarini*) keskin kengaytirishi orqali porshenning ilgarilanma qaytma va tirsakli valni aylanma harakati, mexanik ishiga aylanadi. Porshenning ilgarilanma-qaytma harakatlanishi tirsakli valning krivoship-shatun mexanizmi bilan amalga oshadi.

***Porshenli ichki yonuv dvigatellarda yonilg‘i sifatida:***

- suyuqliklar (*benzin, dizel, spirtlar, biodizel*);
- gazlar (*suyultirilgan gaz – tabiiy gaz, vodorod, neft krekingi gazsimon mahsulotlar, biogaz*) dan iborat.

Dvigatelning to‘liq aylanishi taktlarning ketma-ketligidan iborat porshenning bir tomonlama ilgarilanma-qaytma harakatlaridir. Ish sikli bo‘yicha Ikki taktli va to‘rt taktli dvigatellar mavjud (2.1-rasm).



**2.1-rasm. Porshenli ichki yonuv dvigateli**

Turli porshenli dvigatellarda silindrлarning soni 1 dan 24 gacha bo‘lishi mumkin. Silindr hajmi-silindrning ko‘ndalang kesmini porshen yo‘liga ko‘paytmasiga aytildi. Barcha silindrлarning umumiy hajmi odatda dvigatel hajmi deb ataladi.

Texnik termodinamika doirasida, ularning siklogrammalarining xususiyatlariga qarab porshenli ichki yonuv dvigatellarining ishlashi *Otto*, *Dizel*, *Trinkler*, *Atkinson* yoki *Millerning* termodinamik sikllari bilan tavsiflanadi.

Porshenli dvigatel, eng keng tarqalgan issiqlik dvigatelidir. Yer, havo va suv transporti, xarbiy, qishloq xo‘jaligi va qurilish texnikasi, elektr generatorlar, kompressorlar, suv nasoslari, dvigatelli qurilmalar (*benzinli daraxt kesuvchirlar*, *maysa kesish mashinalari*) va boshqa mobil va statsionar mashinalarni ishlatish uchun qo‘llaniladi. Porshenli ichki yonuv dvigatellarining quvvati bir necha vattdan  $75\ 000\ kVt$  gacha bo‘lishi mumkin.

### 3. Elekrtomobillar va gibrild kuch qurilmalari

Hozirgi kunda qayta tiklanadigan va noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanish sohasida ko‘plab texnologiyalar taklif etilganki, ularni bemalol amalga oshirish mumkin. Ammo, qayta tiklanadigan ( $QT\uparrow$ ) va noan’anaviy energiya manbalari (NEM)ning rad qilib bo‘lmaydigan ustunliklari bilan bir qatorda u yer yuzida tarqoq ekanligi natijasida olinadigan quvvat uchun sarf-xarajat ham ortib boradi. Shu sababli, hozircha  $QT\uparrow$  va NEM lari an’anaviy energiya manba (AEM) laridan foydalanish bilan raqobatlasha olmaydi. Shunga qaramay, ba’zi ilmiy texnikaviy yechimlarni hozirdanoq amalda qo‘llash orqali erishilgan yutuqlar shuni ko‘rsatadiki, ular yaqin yillardayoq iqtisodiy jihatdan o‘z-o‘zini oqlashini namoyon qila oladi .

Ma’lumotlarga qaraganda,  $QT\uparrow$  va NEM laridan foydalanish natijasida 2022 - yilga kelib, 2,6 mldr. tonna shartli yoqilg‘ini tejash mumkin. Qayta tiklanadigan energiya (QTE) larni tadqiq etishni, rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat. 7 a) bug‘ turbinali quyosh elektrostansiyalarini yangi turlarini

yaratish va ishlab chiqarish hamda ishga tushirish; b) avtonom (iste'molchilar uchun fotoelektr) qurilmalarni loyihalash va ishlab chiqarish; d) quyosh nuridan foydalanib ishlovchi issiq suv ta'minoti, isitish va sovitish tizimlarini loyihalash va qurish; e) quyosh issiqlik elektrostansiya (QIE) lar qurish va ishga tushirish; f) geotermal issiqlik ta'minotini loyihalash va qurish; g) shamol energiyasi aggregatlari (ShEA) va shamol elektr stansiyalari (ShES)ni loyihalash hamda ishlab chiqarishga joriy etish; j) biogaz energiyasidan foydalanishni rivojlantirish.

Quyosh energiyasi hisobiga issiq suv olish uchun quyosh suv isitish qurilmalaridan foydalanilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda bir kunda o'n ikki metr kub suvni quyosh nuri bilan isitadigan qurilmalar ishlab turubdi. Quyosh energiyasidan qishloq xo'jaligida issiqxonalarini isitish, mevalarni quritish, qo'ziqorin yetishtirish, uylar va pillaxonalarini isitish, beton va temir-beton buyumlarni quritish hamda bug'lantirib ishlov berish, shungdek, kombinatsiyalashtirilgan barabanli quritkichda paxta va donador (bug'doy, no'xat, mosh va h.k.) qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritishda foydalanilmoqda. Quyosh energiyasidan foydalanib, uylarni qishda isitish va yoz oylarida aksincha, sovitish bo'yicha Respublikamiz olimlari yangi loyihalarni ishlab chiqdilar. Bunday quyosh uylarning xarakterli tomonlari shundan iboratki, uylar qish oylarida, havo bir necha sutka davomida bulutli bo'lib turganida ham, quyoshli kunlarda maxsus issiqlik akkumulyatorlarida to'plangan energiya hisobida isitiladi, ayrim hollardagina isitish manbalaridan foydalaniladi. Keyingi paytda tibbiyotda quyosh energiyasidan quyosh vannalari yordamida biologik to'qimalarni davolashga alohida e'tibor berilmoqda. Dozalangan quyosh radiatsiyasidan davolash (gelioterapiyada), shuningdek, organizimni chiniqtirish vositasi sifatida foydalanadilar. Biologik sistemadan amaliy foydalanish uchun quyosh energiyasini qayta tiklash usullarini loyihalash va uskunalar ishlab chiqarish zarur. 8 QT↑ va NEMning asosiy yo'nalishlari quyidagilar.

1. Issiqlik energiyasi. Bu energiyaning asosiy manbalaridan biri quyoshning issiqlik nurlanishi, ikkinchisi esa, yer osti issiqligidir, geotermal suvlar.
2. Kimiyoviy energiya - fotosintez mahsulotlari.
3. Mexanik energiya. Shamol, dengiz to'lqinlari, dengizning ko'tarilib-tushishi, dengiz oqimi va h.k.
4. Yorug'lik energiyasi. Quyoshning yorug'lik nuri.

Hozircha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, barcha texnik jihatdan amalga oshirish mumkin bo'lgan QT↑ va NEM texnologiyasini quyidagi jihatlarga qarab ajratish mumkin:

- a) iqtisodiy jihatdan hozirdan amalga oshirish mumkin;
- b) iqtisodiy jihatdan yaqin (15-20) yillarda amalga oshirish imkoniyati bor;
- c) iqtisodiy jihatdan 30-40 yillarda amalga oshirish mumkin;
- d) iqtisodiy jihatdan foydalana olish muammo yoki uzoq (40-50) yillardan so'ng foydalanish mumkin.

## **2. “Yashil energetika” ga o'tish jarayoni ajratilayotgan investitsiya dinamikasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 14- yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir" deb ta'kidlagan edilar.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limlari, tarmoqlari va sohalari o'rtasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga bu esa o'z navbatida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflatsiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda, iqtisodiyotda modernizatsiyalash jarayoni va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishda energetika tarmog'ida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Energetika tarmog'ida resurslar samaradorligiga erishish talabning o'zgarishiga va yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishga xizmat qiladi. «Yashil energetika»ga o'tish, innovatsion uskuna va texnologiyalarga talabni rag'batlantiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotga «Yashil» tamoyillarni tatbiq etish uchun muhim hisoblanadi. O'zbekistonda kremniy zahiralarining mavjudligi fotoelektrik batareyalarni ishlab chiqarish istiqbolini yaratadi.

Yoqilg'i-energetika resurslarining yetishmovchiligi va ularga bo'lgan narxlarning o'zgaruvchanligi sharoitida, mamlakatimiz aholisining hamda iqtisodiyotimiz asosiy tarmoqlarida energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, an'anaviy energiya manbalaridan muqobil energiya manbalariga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Yangi «Yashil» me'yor va standartlarga o'tilishi iste'molchilarni iqtisodiy madaniyati va moliyaviy savodxonligini oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, yuqori energiya samaradorligiga ega bo'lgan tovarlarga talabning ortishiga sabab bo'ladi hamda talab va taklif tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.



Xususan, so'nggi 5 yilda elektr energiyasi iste'molchisi bo'lgan tadbirkorlar soni 25 foizga, ularning iste'mol hajmi esa 30 foizga ko'paygan.

Sir emaski, keyingi yillarda dunyoda "yashil" energetikaga o'tish hamda muqobil energiya manbalaridan keng foydalanishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'yyapti. Yilning o'rtacha 320 kuni quyoshli bo'lgan zaminimizda quyosh

energiyasidan foydalanish qanday iqtisodiy samaradorlik keltirishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, mamlakatimizda quyosh stansiyalarini qurish orqali jami 600 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Bu respublikamizning elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojidan 8 barobar ko‘p deganidir. Ammo yaqin-yaqingacha mamlakatimizning ulkan imkoniyati e’tibordan chetda qolayotgan edi.

bugungi kungacha gaz, neft kabi uglevodorodlar energiyasidan foydalanish keng tarqalgan. Lekin ularning zaxiralari cheklangan. Shu bois mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirilmoqda.

Keyingi yillarda bu borada yirik loyihalarga qo‘l urilayotgani esa tahsinga sazovordir. Respublikamizning ustuvor yo‘nalishlardan biri barchamiz uchun global masalaga aylanayotgan elektr energiyasining zarurligi va undan oqilona foydalanish, arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energetikani joriy etish choralarini ko‘rishdan iboratdir. Aholini sifatli va uzlusiz energiya manbalari bilan ta’minalashda, avvalo davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish, barqaror investitsion loyihalarni jalb qilish zarur.

Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida Karmana tumanida barpo etilgan 100 megavatt quvvatli mamlakatimizdagи birinchi yirik ilk quyosh fotoelektr stansiyasini ramziy ishga tushirdi. Mazkur majmua qurilishi o‘tgan yili boshlangan edi. Uning doirasida 110 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 300 mingta quyosh panellari o‘rnatildi. Bu loyiha amalga oshishi bilan 80 million kub/metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi va bu gaz aholi uylariga boradi. Eng muhim, 160 ming tonna zaharli gazlar havoga tarqalishining oldini oladi. Bu esa tom ma’noda, O‘zbekistonni “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishida birinchi qadam bo‘lib, davlatimiz mustaqilligining o‘ttiz yilligiga munosib sovg‘a bo‘ldi, desak mubolag‘a emas.

Ushbu stansiya yangi soha rivojida mutlaqo yangi davrni boshlab bermoqda. Bu yerda yiliga 252 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu stansianing ahamiyati shundaki, aholi va sanoatning o‘sib borayotgan ehtiyojini barqaror energiya bilan ta’minalaydi. Narxi ham arzon – 1 kilovatt soat uchun 2,67 AQSH senti. Yana bir muhim jihat, bunday loyihalar tufayli yurtimizda yangi ishlab chiqarish yo‘nalishlari, zamonaviy texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Bu ishlar davlatimiz rahbarining uzoqni o‘ylab olib borayotgan oqilona siyosatining yana bir amaliy natijasidir.

Prezidentimiz Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida energetika sohasini rivojlantirish masalalariga alohida to‘xtalib, mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan loyiha va rejalarini birma-bir sanab o‘tgan edi. Xususan, iqtisodiy faoliyat va aholi daromadlari o‘sgani sayin, energiya resurslariga bo‘lgan talab ham ortib borishi, neft-gaz va energetika sohalaridagi islohotlarni, boshlangan yirik loyihalarni yakuniga yetkazish lozimligi ta’kidlangan edi.

Haqiqatdan ham, yurtimizda energetika sohasini tubdan isloh qilish masalalarida butkul yangi tizim tashkil etish bo‘yicha Prezidentimiz rahbarligida so‘nggi yillar ichida ko‘plab yig‘ilish va uchrashuvlar o‘tkazildi. Tegishli qonunlar, xalqaro bitimlar, qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Birgina energetika sohasida

joriy yil yakuniga qadar umumiy quvvati 1 ming 800 megavattga teng bo‘lgan issiqlik va quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirilishi ko‘zda tutilmoxda.

Hozirgi kunga kelib energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida qiymati 7,4 milliard dollarlik 19 loyiha amalga oshirilib, shundan bugungi kun holatida 12 loyiha bo‘yicha bitimlar imzolangan. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 14 ming megavattdan 15 ming 800 megavattga yetkaziladi. 2016 yilga nisbatan o‘sish ko‘rsatkichi esa 52 foizni tashkil qiladi.

Toshkent viloyati Qibray tumanida 240 megavattdan 2 ta va 230 megavattga teng 1 ta, Xorazm viloyatida 174 megavatt, Buxoro viloyatida 270 megavatt, Qashqadaryoda 220 megavatt quvvatga ega issiqlik elektr stansiyalari, Samarqand viloyatida umumiy quvvati 100 megavatt bo‘lgan quyosh elektr stansiyasi ishga tushirilishi arafasida turibdi. Shu bilan birga, Surxondaryoda 38 megavattga teng “Zarchob-2” va Toshkent viloyatida 8 megavattga teng “Kamolot” gidroelektr stansiyalari ishga tushiriladi.

### **3. Kioto Protokoli va Parij kelishuvi haqida.**

Atrof-muhitni muhofaza qilish va muhofaza qilish g'amxo'rligi XNUMX-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan narsadir. Insoniyat sanoat inqilobi rivojlanganidan buyon sayyorani kamsitayotganini va yo'q qilayotganini anglaganida, u tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish usullarini to'xtatish yoki sekinlashtirishi, atmosferaga, suvga va tuproqqa chiqindilarni va chiqindilarni kamaytirishi kerakligini tushunadi.

Atmosfera chiqindilariga e'tibor berib, atmosferaga eng ko'p gaz chiqaradigan davlatlarning rahbarlari yaratadilar **ularni kamaytirish uchun Kioto protokoli deb nomlangan**. Kioto protokoli nima va u nimaga erishmoqchi? U qaysi davrni o'z ichiga oladi va uning maqsadi nimadan iborat?

### **Issiqxona effekti va iqlim o'zgarishi**

Kioto protokoli nimani to'xtatmoqchi ekanligini tushunish uchun biz sayyoramizning iqtisodiy faoliyatimizdan kelib chiqadigan atmosferaga chiqadigan emissiyalardan aziyat chekayotgan jiddiy oqibatlari va hodisalarini joriy qilishimiz kerak. Birinchisi, issiqxona effektining ko'payishi. "Issiqxona effekti" deb nomlanadigan narsa quyidagilardan iborat **sayyoramiz haroratining ko'tarilishi** gazlarning ma'lum bir guruhi ta'siridan kelib chiqadi, ularning ba'zilari infraqizil nurlanishni o'zlashtiradigan, odam tomonidan katta miqdorda ishlab chiqarilgan, er yuzi va atrofdagi atmosfera qatlaming pastki qismini qizib ketishiga olib keladi. Aynan mana shu issiqxona effekti tufayli Yerda hayot mumkin, chunki agar bunday bo'lmasa, o'rtacha harorat -88 darajani tashkil etadi. Shuning uchun biz issiqxona effektini ekologik muammo deb aralashtirmasligimiz kerak, aksincha uning ko'payishi.

Ushbu issiqxona ta'sirining ko'payishi butun sayyoramizning iqlimida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, chunki bizning dunyomizning tizimlari vaqt o'tishi bilan bir xil yoki barqaror emas. **Bu iqlim o'zgarishi deb nomlanadi**. Kioto

protokoli atmosferaga gaz chiqindilarini kamaytirish va shu bilan birga iqlim o'zgarishini oldini olish orqali issiqxona effektining ko'payishini to'xtatish uchun paydo bo'ladi.

### Kioto protokoli



Kioto protokoli amalgalashuvda **atmosferaga zararli gazlar chiqindilarini kamaytirish bo'yicha global rejim sari muhim qadam**. Bu iqlim o'zgarishini oldini olish bo'yicha xalqaro kelishuv bo'lib, uni ratifikatsiya qilgan barcha mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy faoliyatida global gaz chiqindilarini kamaytirish majburiyatini olganlar. U 1997 yilda tasdiqlangan va Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Asosiy Konvensiyaga a'zo mamlakatlar gaz chiqindilarini kamaytirish uchun eng qat'iy talablar aks ettirilgan bitimni tuzish kerak degan qarorga kelishlari uchun bir yil vaqt kerak bo'ldi.

Ba'zi uchrashuvlar, babs-munozaralar va munozaralardan so'ng Konvensiya 1994 yilda kuchga kirdi. Bir yil o'tgach, hukumatlar o'zaro o'zaro muzokaralarni boshladilar, bu har bir mamlakatning iqtisodiyotiga qarab atmosferaga chiqindilarini chiqarish bo'yicha ko'rsatmalarni belgilab beradi. . Ushbu xalqaro shartnoma o'z avtonomiysi bilan ishlashi kerak. So'ngida, **U 1997 yilda bir ovozdan qabul qilingan va 2005 yilda kuchga kirgan**.

### Kioto protokolining asosiy vazifalari nimadan iborat?



Kioto protokolining asosiy maqsadi **uni ratifikatsiya qilgan barcha mamlakatlar uchun issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishdir**. Ushbu

maqsadlar asosan mamlakatning iqtisodiy holatiga bog'liq. Agar mamlakat rivojlanayotgan bo'lsa, iqtisodiyotini va ishlab chiqarishni yaxshilash uchun ko'proq issiqxona gazlarini chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan, yaxshi yalpi ichki mahsulotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakat chiqindilarni kamaytirishi kerak, chunki u issiqxona effektining oshishi uchun ozgina chiqindi chiqaradigan boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'proq javobgardir.

Protokolni qisqartirish bo'yicha maqsadlar 8 yilda turli mamlakatlarning emissiya darajasining -10% dan + 1999% gacha bo'lgan oralig'ida «bu gazlarning umumiy chiqindilarini 5% dan kam bo'lмаган darajaga tushirish maqsadida 1990 yilda 2008 yilda majburiyat muddati 2012-5 yillar ». Gap eng rivojlangan mamlakatlarda global gazlarning 1990 foizga kamayishi haqida ketmoqda. Biroq, har bir mamlakat o'z iqtisodiyotiga qarab, XNUMX yilda chiqariladigan darajaga nisbatan chiqindilarni ozmi-ko'pmi kamaytirishi kerak bo'ladi. **Evropa Ittifoqi 8% kamaytirish kerak**, 6% Kanada, 7% AQSh (garchi u shartnomadan chiqqan bo'lsa), 6% Vengriya, Yaponiya va Polshada. Yangi Zelandiya, Rossiya va Ukraina o'zlarining chiqindilarini barqarorlashtirishlari kerak, Norvegiya ularni 1 foizga, Avstraliyani 8 foizga (keyinchalik Protokolni qo'llab-quvvatlashni bekor qildi) va Islandiyani 10 foizga oshirishi mumkin. Evropa Ittifoqi a'zo davlatlar o'rtasida turli foizlarni taqsimlash orqali 8% maqsadga erishish uchun o'z ichki kelishuvini o'rnatdi. Ushbu maqsadlar Lyuksemburgdagi 28% dan, Daniya va Germaniyadagi 21% dan qisqartirilgandan Gretsiyada 25% ga va Portugaliyada 27% gacha.

## Kioto protokolining xususiyatlari

Protokolni ratifikatsiya qilgan mamlakatlarda belgilangan miqdorlarga erishishning bir necha yo'li bor, ular faqat chiqindilarni kamaytirish orqali. Masalan, ular **issiqxona gazlarini olib tashlaydigan "lavabolar"** sonini **ko'paytirishi mumkin**. O'rmonlar maydonining ko'payishi bilan atmosferadan ko'proq karbonat angidrid chiqarilishi mumkin. Protokol mamlakatlarga moslashuvchanlikni beradi, bu esa lavabolar ko'payishi milliy hududda yoki boshqa mamlakatlarda amalga oshirilishi mumkin, chunki global chiqindilar hisobga olinadi.

Gazni kamaytirish maqsadlariga erishishning yana bir usuli bu **emissiya huquqlari bo'yicha savdolar**. Ya'ni, mamlakatning atmosferaga bir tonna issiqxona gazini chiqarish huquqi. Mamlakatlar emissiya huquqlarini bir-biri bilan savdo qilishlari mumkin. Agar mamlakat ozgina emissiya qilish uchun ortiqcha emissiya huquqiga ega bo'lsa, u ularni o'z iqtisodiyotini yaxshilash uchun ko'proq chiqarishi kerak bo'lgan boshqa mamlakatga sotishi mumkin.

Kioto protokoli murakkab kelishuvdir, chunki u nafaqat iqlim o'zgarishi kabi global muammoga qarshi samarali bo'lishi kerak **u siyosiy jihatdan maqbul va iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi kerak**. Ushbu muammolar protokolni sekinlashtirmoqda va maqsadlar to'liq bajarilmayapti. Maqsadlar majburiy emas,

shuning uchun biron bir davlat ularni bajara olmadi va biron bir sanktsiyani ololmadi. Hushyorlikni va maqsadlarga muvofiqligini oshirish uchun 1997 yilda kelishuv tasdiqlangandan keyin ham uning turli dasturlarini nazorat qilish va hakamlik qilish uchun tuzilgan guruhlar va qo'mitalar soni ko'payib ketdi.

### Kioto protokolining kamchiliklari

Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan mamlakatlar, o'rtacha havo harorati ikki darajadan oshib ketmaslik uchun, zararli gazlar chiqindilarini kamaytirishga harakat qilmoqdalar. Ilmiy hamjamiyat, iqlim va unga gazlarning ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlardan so'ng, sayyoramizning barcha ekotizimlarida qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar chegarasini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. **global haroratning ikki darajaga ko'tarilishi.** U erdan ekotizimdagi o'zgarishlar va salbiy ta'sirlar biz bilganimiz uchun hayot uchun halokatli va qaytarib bo'lmaydigan bo'ladi.

Ushbu barcha sabablarga ko'ra xalqaro shartnomalar nozik muvozanatni saqlashga harakat qilishi kerak. Umumiy yordamni izlayotganlar, ko'pincha hal qilmoqchi bo'lgan muammolarni hal qilish uchun etarli darajada baquvvat emaslar. Bunday holda, Kioto protokolining vazifalari **ular harorat ko'tarilishining ikki darajasidan oshib ketmaslikni boshqarish uchun shijoatli emaslar.**

### Kioto protokolining qisqacha mazmuni



Kioto protokolining asosiy xususiyatlari va vazifalari bu erda umumlashtirilgan:

- Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Asosiy Konvensiyasining (UNFCCC) protokoli va butun dunyo bo'ylab parnik gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan xalqaro shartnomadir.

- Issiqxona ta'siriga hissa qo'shadigan asosiy gazlar oltitadir: karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ), metan gaz ( $\text{CH}_4$ ) va azot oksidi ( $\text{N}_2\text{O}$ ), qolgan uchtasi esa ftorli sanoat gazlari: gidroflorokarbonatlar (HFC), perflorokarbonlar (PFK) va geksaflorid. oltingugurt ( $\text{SF}_6$ ).

- 5 yilda mavjud bo'lgan global chiqindilarga nisbatan gazni kamaytirishning global foizi 1990% ni tashkil qiladi.

- Protokolni ratifikatsiya qilgan barcha mamlakatlar o'zlarining chiqindilarini teng ravishda kamaytirmasligi kerak.

- Kioto protokoli 1997 yilda qabul qilingan va 2005 yilda kuchga kirgan.

- Gazni kamaytirish bo'yicha maqsadlarga 2008-2012 yillarda erishilgan.

- Protokol 55 dan kam bo'lмаган davlatlar tomonidan, shu jumladan, chiqindilarining umumiyligi miqdori 55 yilda karbonat angidrid chiqindilarining kamida 1990 foizini tashkil etgan rivojlangan mamlakatlarni ratifikatsiya qilgan taqdirda qonuniy kuchga ega.

- Mamlakatlar issiqxona gazini chiqarish huquqi bilan savdo qilishlari mumkin.

- Kioto protokoli, albatta, 2020 yilda Parij kelishuvi harakatlari amalga oshirila boshlaganida tugaydi.

Ko'rib turganingizdek, Kioto protokoli juda murakkab. Ushbu ma'lumot bilan siz iqlim o'zgarishiga qarshi ushbu bitim haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin, chunki bu hammamiz uchun va bizning avlodlarimiz uchun juda muhimdir.

Parij bitimi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun barcha a'zo davlatlardan chiqadigan gazlarni kamaytirishga qaratilgan. Buning uchun kerak **sayyoramizning o'rtacha haroratini  $2^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lishidan saqlaning.**

Valladolid (UVa) universiteti Amaliy iqtisodiyot va Energiya, iqtisodiyot va tizimlar dinamikasi guruhining tadqiqotchilari guruhi 188 mamlakatning so'nggi Parij iqlim konferentsiyasida (COP21) takliflarini tahlil qildi, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish to'g'risida. Ushbu tekshiruvlar natijalari va bizni kutayotgan ssenariy haqida bilmoqchimisiz?

### **Parij kelishuvining maqsadi**

Emissiyani kamaytirish bo'yicha takliflarni tahlil qilgan tadqiqotchilar, barcha takliflar bajarilgan eng optimistik stsenariyida, **3 yilgacha harorat 4-2050 darajagacha ko'tarilishi mumkin edi**. Boshqacha qilib aytganda, Parij bitimining sa'y-harakatlari, xuddi hozirgi kabi, iqlim o'zgarishi va uning sayyoramiz ekotizimidagi qaytarilmas o'zgarishlarini to'xtatish uchun etarli emas.

Ilmiy jamoatchilik uchun global o'rtacha haroratning ikki darajaga ko'tarilishi yuz berishi mumkin bo'lgan eng keskin o'zgarishlarga ishonchli to'siqdir. Haroratning ko'tarilishi **chiziqli naqsh emas, balki eksponent** va tugagan vaqtdan boshlab, ushbu o'sishni yanada yuqori darajaga ko'taradigan ba'zi mexanizmlar ishga

tushiriladi. Bu vaqt Shimoliy qutbdagi muzlar oxir-oqibat eriydi, Yerning albedosi o'zgaradi va okeanlar ko'proq issiqlikni qabul qilib, harorat tezroq ko'tariladi.

O'rtacha harorat ko'tarilmasligi uchun, ular sayyoramizda qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib kelishi uchun, barcha mamlakatlar taqdim etdilar **Milliy belgilangan kutilgan hissalar**. Bu har bir mamlakat kamaytiradigan gaz chiqindilari miqdorini va ushbu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan siyosatni belgilaydigan turli xil harakatlar rejalar.

«Parij kelishuvi har bir davlat tomonidan qilingan takliflarning qo'lida hamma narsani qoldiradi. Bu, xuddi bo'lgani kabi, ko'p tomonlama iqlimi boshqarish modelidan kelib chiqadi **Kioto protokoli**, bir tomonlama va ixtiyorilikka asoslangan, chunki har bir mamlakat taklif qilish majburiyatiga ega, ammo unga rioya qilmaslik kerak va shuningdek, uning muvofiqligini nazorat qilish uchun tashqi organ mavjud emas », deya ta'kidlaydi UVa tadqiqotchisi Xayme Nieto.

### **Mamlakatlar tomonidan takliflarning tahlili**

Tadqiqot guruhi mamlakatlarning chiqindilarni qisqartirish bo'yicha takliflarini siyosiy va moliyalashtirish nuqtai nazaridan tahlil qildi. Shu tarzda ular qila oladilar **global miqyosda chiqindilar miqdorini aniqlash** ushbu takliflarni qo'llash va ularning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga qo'shgan hissasini o'z ichiga oladi.

Takliflar tahlil qilingandan so'ng, agar barchasi bajarilsa (majburiy emasligiga qaramay), global o'rtacha harorat **3 dan 4 darajagacha ko'tariladi**, "xavfsiz" deb hisoblangan ikki darajadagi dastlabki maqsadni deyarli ikki baravar oshiradigan o'sish.

Boshqa tomondan, Parij kelishuvida deyarli shaffof bo'lмаган takliflar, mamlakatlar iqtisodiy o'sishi ta'sirini hisobga olmaydi. Tadqiqotchilar har bir mamlakat 2030 yilda chiqadigan chiqindilarni hisoblab chiqdilar, chunki ushbu Sharhnomaga bu yil uchun ufqni belgilab beradi. **Har bir mamlakat 37,8-2005 yillar davriga nisbatan o'rtacha 2015% ko'proq emissiya qiladi**. Hozirgi vaqtida asosiy gazni chiqaruvchi Xitoy va beshinchi o'rinda turgan Hindiston **ular ushbu chiqindilarning deyarli 20% uchun javobgar bo'lishadi**.

«Tizimlar dinamikasi modellari kelajakda nima bo'lismeni tendentsiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilishga va ishlab chiqilgan siyosatlarga ko'ra turli xil stsenariylarni baholashga imkon beradi. Biz uchun iqtisodiyotga o'tish nuqtai nazaridan hozirgacha bo'lgan eng muhim kelishuvni tahlil qilish juda muhim edi **past uglerod** so'nggi yillarda Parij kelishuvi », deb yakunlaydi Nieto.

## **8-MAVZU: AVTOMOBILSOZLIK VA TRAKTORSOZLIKDA ENERGIYA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA ILM-FAN VA SOHANI RAQAMLASHTIRISHNING TUTGAN O'RNI.**

### **REJA:**

**1. Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari. Sohadagi katta hajmdagi ma'lumotlar va sun'iy intellekt usullari o'rtaqidagi sinergiya.**

**2. Xavfsizlikni ta'minlash usullari. Inson kapitali sifatini oshirish Tayanch so'z va iboralar.**

**1. Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari. Sohadagi katta hajmdagi ma'lumotlar va sun'iy intellekt usullari o'rtaqidagi sinergiya.**

**O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son [Farmoni](#), "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son [qaroriga](#) muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ushbu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son [qaroriga](#) muvofiq:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi negizida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) tashkil qilinganligi hamda uning asosiy vazifalari belgilanganligi;

Institut yuridik shaxs hisoblangan davlat ilmiy tashkiloti bo'lib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazining shartnomalari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi;

Institutning joriy faoliyati, bino va inshootlardan foydalanish, xodimlar mehnatiga haq to'lash (ilmiy xodimlardan tashqari) bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish Davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

Institut xodimlariga Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etilishi;

Institut faoliyatini tashkil qilish bilan bog‘liq xarajatlar 2021-yilda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi uchun ajratilgan budjet ajratmalari doirasida moliyalashtirilishi, 2022-yildan esa Davlat budgetining xarajatlar parametrlarida belgilangan tartibda nazarda tutilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

## 2. Belgilab qo‘yilsinki, Institut:

ilmiy tashkilot sifatida davlat buyurtmalari va dasturlarini amalga oshirishda hamda fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borishda ishtiroy etadi;

Institut direktori va uning o‘rinbosarları O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda, Institut direktorining ilm-fan bo‘yicha o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Institut tuzilmasida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hamda Institutning “Intellektual dasturiy tizimlar” qo‘shma laboratoriyasini (keyingi o‘rinlarda — qo‘shma laboratoriya) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

## Belgilansinki:

qo‘shma laboratoriya Institutning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti binosiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi;

qo‘shma laboratoriya Vazirlar Mahkamasining “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 19-iyuldaggi 603-son qarori bilan joriy etilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektorining ilmiy konsultanti umumiylahabarlik qiladi va ishini muvofiqlashtiradi.

## 4. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziriga, zarur hollarda, Institutning tuzilmasiga xodimlarning umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. Institutga respublikadagi ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida amalga oshirayotgan ilmiy va o‘quv faoliyatiga, jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali huzurida tashkil etilayotgan Raqamli texnologiyalar ilmiy-innovatsion markaziga yaqindan ko‘maklashish hamda hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha qo‘srimcha vazifa yuklatilsin.

6. Quyidagilar Institutning ilmiy xodimlar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlarini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ilmiy faoliyatga oid dasturlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag‘lar;

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan sun’iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarini moliyalashtirish uchun alohida ochiladigan hisob raqami orqali ajratiladigan mablag‘lar;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishni, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu sohada loyihalarni tayyorlash uchun tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hamda ushbu jamg‘armaning elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisob raqamidan ajratiladigan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Institut murojaatlariga ko‘ra xorijiy va xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va kengaytirishga ko‘maklashsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bir oy muddatda:

Institutning ustavini tasdiqlash hamda uni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

Institutni zarur telefon va hukumat aloqasi hamda Internet xizmatlari bilan ta’milagan holda videokonferensiya, internet-forum va teleko‘prik tashkil etishda texnik yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rsin.

9. Institut Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Bo‘z-2 mavzesi 17-a uy manzilida operativ boshqaruv huquqi asosida joylashtirilsin.

10. Institutga 2 ta, jumladan, 1 ta shaxsiy biriktirilgan va 1 ta navbatchi avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i O.M. Umarov hamda O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M. Sadikov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV.** Toshkent sh., 2021-yil 31-iyul, 475-son.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi paqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligidagi joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtaсидаги munosabatlар bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti.

Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma'lumotlarni kiritish, toplash, shakllantirish, tahlil qilishning zamонавиу uslubi yo'lga qo'yildi. Buning natijasida soliq hisobotlarini topshirish jarayoni 5-7 barobarga qisqardi. Ayni kezda 112 guruh va 1348 tovar va xizmatlar sinfidan iborat bo'lgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlar va xizmatlarning yagona elektron tasniflagichi uchun veb-portal joriy qilingan. Mahsulotlar va xizmatlar identifikatsiya kodlari yordamida 900 mingdan ortiq elektron hisob-fakturalar yaratilgan.

Elektron hisobvaraqq-fakturalarning keng joriy etilishi soliq ma'murchiliginini yaxshilashga olib keldi. O'tgan yilning ikkinchi yarim yilligida ushbu elektron tizim orqali 798,4 trillion so'mlik tovar aylanmasi soliq bazasiga kiritildi yoki bu ko'rsatkich birinchi yarim yillikka nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyacini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takporlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishslash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtaсидаги hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SIni amalga oshirishning ko'p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.


Sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementidir. Uning jadal rivojlanishi va amaliyotda qo'llanilishining kengayishi ushbu hodisani huquq sohasiga "qo'shish"ni taqozo etadi. Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan boliq bo'lgan u yoki bu tarzda jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish murakkab vazifa bo'lib, mutaxassislar qaysi sohalar va faoliyatni tartibga solish kerakligi haqida turli xil qarashlarga ega va tartibga solishga taklif etilayotgan yondashuvlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi. Sun'iy intellektning ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, u bilan boliq masalalarni huquqiy tartibga solish kelgusi yillarda ham milliy, ham xalqaro miqyosda kun tartibida bo'ladi. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish blokini shakllantirishda turli mamlakatlar hukumatlari o'rtaida kelishilgan pozitsiyani ishlab chiqish muhim, buning uchun bunday tartibga solishni yaratish ehtiyojlarini tushunish kerak. Bu mazkur mavzu bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borish va tegishli yo'nalishda o'quv kurslarini yaratishga turki bo'lmoqda.

Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalasi va bundan kelib chiqadigan muammolar allaqachon dunyoning yetakchi universitetlari talabalari tomonidan o'rganilmoqda, masalan, 2018 yildan boshlab Stenford universiteti dasturiga "Sun'iy intellektni tartibga solish" (Regulating Artificial intellekt) interaktiv kursi kiritilgan. Razvedka), kurs mualliflari sifatida kelajakdagi yuristlarning ushbu sohadagi joriy va o'rta muddatli muammolarni tushunishlarini chuqurlashtirish uchun mo'ljallangan.

## **2. Xavfsizlikni ta'minlash usullari. Inson kapitali sifatini oshirish**

XX asr oxirlariga kelib, "xavfsizlik" va "milliy xavfsizlik" tushunchalari teztez qo'llanila boshlandi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg'in quroollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og'irligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum yemirilgandan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo'linishi barham topgandan keyingi davlatlar o'rtaсидаги muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o'zagarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Xavfsizlik tushunchasi o‘zining obyektlari va subyektlari nuqtainazaridan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo hozirgi davrda bu tushunchaning umumlashgan shakli milliy xavfsizlik deb ataladi. 1.1-rasm.




1-rasm. Xavfsizlik subyektlari va obyektlari

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli

Hozirgi jahon iqtisodiyot ilmida va mamlakatlar iqtisodiy siyosatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash muammolariga jiddiy e’tibor berilishi ushbu mavzuning dolzarbligidan darak beradi. Hozirgi dunyoda tartibqoidalar o‘zgarib borayotgan sharoitda geosiyosiy ta’sir doiralarini «qayta taqsimlash»ga urinishlar kuzatilmoqda, bu esa xalqaro huquq universal prinsiplarining buzilishiga va jahonda strategik mavhumlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Global lashuvning muqarrarlik xususiyati, uning bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berishi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohalarida to‘g‘ridanto‘g‘ri va potensial xavf tug‘dirmoqda. Bu jarayonlar dunyo mamlakatlarining bir-biriga bog‘liqligining ortib borishi, global iqtisodiyotda inqirozli vaziyatlarning yuzaga kelishi, xalqaro moliya tizimining qayta shakllanishi, iqtisodiy taraqqiyot markazi Osiyo Tinch okeani mintaqasi tomon siljishi, turli xil yo‘nalishdagi integratsion va dezintegratsion jarayonlarning chuqurlashuvi, strategik resurslar rivojidagi nomutanosiblikning oshishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston o‘zining muhim

geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga egaligi bilan doimiy e'tibor obyektiga hamda jahondagi yirik davlatlarning strategik manfaatlari to'q nashadigan hududga aylanmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiyligi shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri va tahdidlardan himoya qilishga yo'naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o'z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Milliy xavfsizlik turlari

Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishiga qodirligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Respublikamizda iqtisodiy xavfsizlik masalasi mamlakat milliy xavfsizligining bir qismi sifatida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ko'rib chiqildi. Unda mamlakatning milliy xavfsizligi, uning ajralmas qismi bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik masalalari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi.

**Inson kapitali** – bu inson va umuman jamiatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlataladigan bilim, ko'nikma va malakalar yo'g'indisidir. Bu atama birinchi marta 1958 yilda amerikalik iqtisodchi Jeykob Minser tomonidan qo'llanilgan, so'ngra 1961 yilda Teodor Shults va 1964 yildan boshlab Gari Bekker inson

kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslab, ushbu g'oyalarni inson xattiharakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda ishlab chiqdilar. Masalan, G.Bekker fikricha, “inson kapitali” – bu tug’ma qobiliyatlar va olingen bilim, ko’nikma va motivatsiyalar to’plami bo’lib, ulardan (korxona yoki jamiyatning shaxsi darajasida) to’g’ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi [3]. “Inson kapitali” har bir aniq shaxs tomonidan shakllantiriladi va u tirik inson shaxsiyatidan ajralmasdir. Ko’rinib turibdiki, dastlab, inson kapitali deganda, faqat insonga va uning mehnat qobiliyatiga xos bo’lgan – ta’lim va kasbiy mahoratni oshiradigan sarmoyalari yig’indisi tushunilgan. Hozirgi davrga kelib esa, inson kapitali tushunchasiga e’tibor yanada kuchaydi va ushbu kontseptsiyani rivojlantirishga jiddiy urg’u berilmoqda. Inson kapitali barcha faoliyat turlarida mehnat sifati va unumdorligini oshirishga yordam beradi. Bilimli va tajribali mutaxassislar mehnat unumdorligi va samaradorligini belgilaydi. Mehnat samaradorligida esa bilim, sifatli mehnat, mutaxassislarning malakasi, tajribasi hal qiluvchi o’rin tutadi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, inson kapitali kontseptsiyasi iste’mol xarajatlarini, ya’ni oilalarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat uchun xarajatlarni hamda shu maqsadlar uchun davlat xarajatlarini o’z ichiga qamrab oladi [1; 2]. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida barcha mablag’larning 70% ga yaqini inson kapitaliga, atigi 30% ga yaqini esa jismoniy kapitalga yo’naltirilgan [4]. Keng ma’noda inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanish, jamiyat va oila taraqqiyotining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan ishchi kuchining o’qimishli qismi, bilimlar, intellektual va boshqaruv ishlari vositalari, yashash joylari va ish faoliyati bo’lib, samarali va oqilona ishlashini ta’minlaydi. Inson kapitali tabiiy resurslar yoki to’plangan boylikdan ko’ra muhimroq bo’lgan eng qimmatli resursdir. Fikrimizcha, inson kapitali hozirgi davr milliy iqtisodiyot taraqqiyotida innovatsion jarayonlarni tadbiq etishning asosiymilidir. Qolaversa, inson kapitali – raqamli tsivilizatsiyani rivojlantirishda asosiy omil bo’lib, ijtimoiy-texnologik infratuzilmalarni faollashuviga olib keladi. Bu esa o’z navbatida milliy iqtisodiyotni, shuningdek, jahon iqtisodiyotini jadal rivojlanishini ta’minlashga olib keladi. Chunki inson kapitali aholi sifatini tavsiflaydi. Shu bilan birga, inson kapitalining takomillashuvi tobora inson salohiyatini oshishiga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitalini inson salohiyatiga ta'siri

Inson salohiyatining oshishi aholi sifati va saviyasining ortib borishi bilan belgilanadi. Inson kapitali aholi sifatini oshirishga, intellektual faoliyatga, jumladan, tarbiya, ta'lif, sog'likni saqlash, bilim (fan), shuningdek madaniyat, san'at va boshqa komponentlarga tadbirkorlik qobiliyati va ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga, mehnatni axborot bilan ta'minlashga, iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga investitsiyalar jalb etish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, inson kapitaliga investitsiyalarning asosiy ulushi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nuqtai nazaridan uning eng muhim vazifalaridan biridir. So'nggi 25 yil ichida inson salohiyatining taraqqiy etishida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishildi.

Ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda inson salohiyatining rivojida jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

- 2019-yilda barcha yosh bolalarning beshdan bir qismidan ko'prog'i bo'y'i pastligidan aziyat chekkan (ya'ni, ularning o'z yoshiga nisbatan bo'y o'sishi sekinlashgan, bu – ularning jismoniy nogironlik yoki kognitiv buzilishlarni rivojlanish xavfining ko'rsatkichini anglatadi) (JME 2020). Global pandemiya davri bolalarning bo'y'i past bo'lishiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin degan tahminlar kuchaydi.

- Ko'pgina mamlakatlar (rivojlanayotgan va ayniqsa, kambag'allik indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlar) ta'lif sohasida inqirozni boshdan kechirmoqda, bu esa

ularning iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, bir xil yoshdag'i maktab o'quvchilari ba'zi mamlakatlarda ta'lim olishi va fanlarni o'zlashtirishi boshqa mamlakatlardagi tengdoshlaridan bir necha yil orqada qolmoqda. Pandemiya bu vaziyatni yanada kuchayishiga olib keldi.

**Ekologik ta'lim va xabardorlik:** aholining ekologik savodxonligi darajasini oshirish transport va transport turlarini tanlashga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga yordam beradi.

### **Amaliy vazifalar:**

1. Muayyan transport turining atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish.
2. Muayyan transport turini tanlang (avtomobil, temir yo'l, suv, havo va boshqalar).
3. Uning asosiy xususiyatlarini va ishslash printsipini tavsiflang.

4. Uning faoliyati bilan bog'liq asosiy ekologik muammolarni ko'rsatib, uning atrof-muhitga ta'sirini tahlil qiling.
5. Transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.
6. Tanlangan transport turining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni taklif qilish.
7. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini asoslang.

**Savollar:**

1. Qanday asosiy transport turlarini bilasiz?
2. Avtomobil transporti atrof-muhitga qanday ta'sir qiladi?
3. Temir yo'l, suv va havo transporti faoliyati bilan qanday ekologik muammolar bog'liq?
4. Transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishning qanday usullarini bilasiz?

## **7-amaliy mashg'ulot: Klaas, Keys. NyuXolland, Djon Dir, Belorus, Rosselmarsh va boshqalar zamonaviy qatorli (chopiq) traktorining konstruksiyasini o'rganish va zamonaviy metodlar orqali taqqosiy tahlil qilish**

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasini yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan

foydalananish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lism amaliyotida foydalani layotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lism metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyl mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lism strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lism metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lism" va b. Interfaol ta'lism strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lism metodlari tarkibidan interfaol ta'lism strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lism metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalananishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lism metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lism metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtiropchilarining faolliklarini oshirib, ta'lism samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'lism metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi. Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'lism metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir munkha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Keys stadi metodi. Bu metodning nomi inglizcha "case-study" so'zlaridan olingan. Bunda "case" – yashik, quti, gilof, jild, "study" – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, sabiq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan "case – true life", ya'ni "keys – haqiqiy hayot" iborasiga ko'ra keys – real hayotning «bir parchasidir». Shunga ko'ra bu metodni "amaliy holatlarni o'qitish metodi" deb ham ataladi. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lism

jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidagi dolzarb bo’lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib turibdi.Ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning dolzarbligi:Keys-stadi ta’lim metodini turli holatlarni o’rganishda qo’llash – hayotdan olingan odadagi vaziyatlarni o’rganishni tashkil etish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta’lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta’lim jarayonidan iborat.Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, [farazlarni ifodalash](#), muammolarni aniqlash, qo’shimcha axborotlarni yig’ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo’yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag’ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog’laydi. Keysni ko’rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o’zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta’lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo’llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi.Keys-stadi ta’lim metodiga doir ayrim asosiy tushunchalar ta’rifi:“Keys” va “keys-stadi” tushunchalarining ma’no-mazmuni ko’p qirrali bo’lib, shunga ko’ra quyida ularning asosiy xususiyatlarini to’liqroq aks ettirish maqsadida ko’p variantli ta’riflari berildi.Keys –1) ta’lim oluvchilarning ma’lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo’yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan [hamda muammoni ifodalash uchun](#), uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to’plami;2) belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo’shimcha axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o’quv-uslubiy materiallar yig’indisi;3) muammoni hal qilish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari na xulosalar.Keys-stadi –1) ta’lim oluvchilarni o’rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo’naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim metodidir.2) ta’lim, [axborot-kommunikatsiya](#), boshqaruv na boshqa sohalarni o’rgatishda qo’yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan (bashorat qilinadigan) o’quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta’minkaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo’lgan ta’lim texnologiyasidir.Keys-stadining mohiyati shundan iboratki, ko’rib chiqilayotgai muammoli vaziyat bo’yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo’lgan tinglovchilarga quyidagilar taklif qilinadi:keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o’zlashtirilishi va qo’llanilishi lozim bo’ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o’tkazish;muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;taklif etilgan muqobil jihat(alternativ)larni baholash va ular

orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash; tanlangan muqobil usul (alternativ)ni amalga oshirish bo'yicha aniq; yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

**New Holland T 7060** — Amerikada ishlab chiqarilgan xorijdan keltirilgan, zamonaviy talab va standartlar asosida ishlab chiqarilgan traktor. Bu dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, postsoviet hududida talab qilinadigan yuqori texnologiyali qurilma. Amerikalik muhandislar ushbu narx oralig'ida texnik jihatdan eng ilg'or traktorlardan birini yaratdilar. Buni muvaffaqiyatli zavod sinovlaridan, shuningdek, ushbu mashinaning haqiqiy egalarining ijobiy fikrlaridan ko'rish mumkin. Albatta, New Holland T 7060 keng funktsional imkoniyatlarga ega va shu tufayli u turli yo'nalishdagi bir nechta operatsiyalarini - iqtisodiy, qurilish va qidiruv-qutqaruv operatsiyalarida birlashtira oladi.

#### Xususiyatlari

- ♣ Yoqilg'i bakining hajmi - 439 litr
- ♣ Dvigatelning maksimal quvvati - 213 ot kuchi
- ♣ gidravlika tizimidagi rezervuarning hajmi 100 litr
- ♣ Dvigatel moyi bakining hajmi - 15 l
- ♣ Transport turi - II, III toifadagi uch nuqtali bog'lanish
- ♣ Uch nuqtali qurolning yuk ko'tarish quvvati - 7,2 tonna
- ♣ Generator kuchlanishi - 12 V
- ♣ Generator oqimi - 150 amper
- ♣ Tuzmalar qutisi - ko'p bosqichli, 18 oldinga va 6 teskari vitesli
- ♣ G'ildirak bazasi - 2884 mm
- ♣ Shina o'lchamlari - 18,4R42
- ♣ Dvigatel turi - dizel, olti silindrli, turbo zaryadlangan va sovutgichli
- ♣ Quvvat - 156 kVt
- ♣ O'chirish moslamasining quvvati - 134 kVt
- ♣ Dvigatel hajmi - 6,8 litr.

**MTZ "BELARUS-80.1"** traktori universal mashina. U qishloq xo'jaligi, uyjoy kommunal xo'jaligi, obodonlashtirish, qurilish sohalarida keng ko'lamli vazifalarni hal etishga mo'ljallangan. Yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari tejamkor yonilg'i iste'moli bilan birlashtirilgan (244 g / kVt / soatgacha), dvigatelning uchta modifikatsiyasi 0 / I / II atrof-muhit standartlariga mos keladi.

#### Xususiyatlari:

ModelD-243S2 (MMZ)

Turbo zaryadsiz, to'g'ridan-to'g'ri yonilg'i quyish bilan dizel turi

Dvigatel quvvati, kVt (hp) 60 (81)

Silindrlar soni, dona 4

Yoqilg'i bakining hajmi, l130

Yuqish

Debriyaj quruq, bitta disk

Mexanik vites qutisi, pog'onali

Viteslar soni: oldinga / orqaga 18/4

Harakat tezligi: oldinga / orqaga 1,9-34,3 / 4,09-9,22

Orqa PTO.540/1000

O'lchamlari va vazni

Uzunlik, kenglik mm4120/1970

Trek, mm: old g'ildiraklarda1350-1850

orqa g'ildiraklarda1500-2100

Eng kichik burilish radiusi, mm3800

Operatsion og'irligi, kg3770

Shinalar:

old g'ildiraklar9,0-20

orqa g'ildiraklar 15,5R38

G'ildirak formulasi 4x2

**Case Puma 210** - bu Rossiya va jahon bozorlarida juda mashhur bo'lgan engil yo'lstanlamas traktor. Ushbu model past narx va muvozanatli xususiyatlari tufayli talabga ega. Traktordan turli sohalarda, jumladan, qurilish va qishloq xo'jaligida mo'ljallangan maqsadda foydalanish mumkin.

Case Puma 210 modeli ushbu traktorning ishlab chiqarilishi uzoq vaqt tugaganiga qaramay, hali ham dolzarb bo'lgan ilg'or texnik qurilmalarga ega. Uskunalar erishish qiyin bo'lgan sharoitlarda murakkab operatsiyalarni bajarishda yuqori mahsuldarlikni namoyish etadi. Xususan, bunga qo'shimchalarni ularash qobiliyati yordam beradi, bu sizga funksionallikni oshirish va shu bilan mehnat unumdarligini oshirish imkonini beradi. Misol uchun, u tortilgan, o'rnatilgan yoki statsionar asboblar bo'lishi mumkin. Traktor tezlashuv dinamikasida farq qilmaydi, aksincha, u yuqori moment va zo'r tortish xususiyatlariga ega bo'lgan dvigatel tufayli yo'lidan tashqari uchastkalarni engib o'tish uchun mo'ljallangan.

Case Puma 210 modeli turli xil qo'shimchalar, shu jumladan qurilish yoki maishiy maqsadlar uchun qo'shimchalar yoki yarim qo'shimchalar oldi - masalan, burg'ulash qo'shimchalari. Shunday qilib, xuddi shu nomdag'i traktor ajoyib funksionallikka ega va shuning uchun u raqobatchilarnikidan kam potentsialga ega.

#### Xususiyatlari

♣ Ishlab chiquvchilar - G'ilof

♣ Dvigatel turi - dizel

♣ Quvvat - 210 ot kuchi

♣ Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar - Avstriya, Angliya, Avliyo Valentin

♣ Oila - Puma seriyasi

♣ Yoqilg'i bakining hajmi - 439 l

♣ Osma turi - uch ballli, yuk ko'tarish quvvati bilan opsiyaga qarab 5800 kg va 7199 kg

♣ Shassi - 4x4 MFWD 4WD

♣ Rulda - gidrostatik

♣ Tormozlash mexanizmi - nam diskli differentsial gidravlika

♣ Tormoz tirkamasi - gidravlik

♣ Kabina - klassik

- ♣ Elektr - salbiy; zaryadlash tizimi - generator; zaryadlash amperi - 150
- ♣ Batareya quvvati - 1300 amper, 12 kuchlanish
- ♣ Vites qutisi - 18 oldinga va 6 teskari vites. Qadamsiz CVT
- ♣ Old shinalar - 16/9R30
- ♣ Orqa shinalar - 20,8R42
- ♣ Og'irligi (etkazib berish) - 7125 kg
- ♣ Og'irligi (ishlashda) - 8126 kg
- ♣ G'ildirak bazasi hajmi - 2880 mm.

## **8-amaliy mashg'ulot. «GM», «MAN», «Mersedes-Bens», «Toyoto», «BMW», «Honda» avtomobillari ta'minlash tizimi konstruksiyasini o'rghanish va zamonaviy metodlar orqali taqqosiy tahlil qilish**

2020 yilda Toyota BMW'ni ortda qoldirib, qidiruv tizimlari orqali eng ko'p qidirilgan avtomobil markasiga aylandi. Bu haqda dunyoning 158 mamlakatidagi eng ommabop so'rovlar bo'yicha Google Trends ma'lumotlarini tahlil qilgan Britaniyaning Compare the Market tahliliy agentligi hisobotida keltirilgan, deb xabar beradi Motor.

Tahlillarga ko'ra, Yaponianing Toyota kompaniya 2020 yilda dunyoning 55 mamlakatidagi qidiruv tizimlarida yetakchilikni qo'lga kiritgan. 2019 yilga qaraganda 28 davlatda o'z natijalarini yaxshilab olgan Toyota'ning ommalashishi model qatorlarining kengayishi bilan izohlanmoqda, xususan, ular orasidan S+pod elektrokari, yangi Yaris, vodorodda harakatlanadigan Mirai va, albatta, beshinchı avlod RAV4 o'rin olgan.

Shu bilan birga, BMW'ning internetdagi mashhurligi tushib ketgan: 2019 yilda Bavariya markasi 118 mamlakatdagi qidiruv tizimlarida yetakchilik qilgan bo'lsa, 2020 yilda — faqat 34 mamlakatda. Shunga qaramay, brend reytingni ikkinchi pog'onasidan o'rin olgan va so'nggi uch yil davomida eng ko'p qidirilgan markaga aylandi.

Uchinchi o'rin Mercedes-Benz'ga nasib etdi — dunyoning 15 mamlakatida uni eng ko'p qidirishgan. To'rtinchi pog'onada Kia (7 ta davlat) joylashgan bo'lsa, undan keyin Ford (6 ta davlat) o'rin olgan. Shuningdek, ro'yxatda Volvo, Audi, Honda, Nissan, Renault, Hyundai va Peugeot markalari joylashgan.

Turli yuqori texnologiyalarning rivojlanishi, ular bilan bog'liq boshqa sohalarga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Aqlii telefon, aqlii soat, aqlii... Mazkur yuksak texnologiyalarning avtomobilsozlik sanoatiga kirib kelishi esa, avtomobil ishlab chiqarish sohasi mahsulotlarini yanada hayratlanarli, jozibador, qulay va ixcham qilib, mijozlar e'tiboriga havola qilish imkonini bermoqda.

Yuksak texnologiyali avtomobil iborasi turmush tarzimizga tobora singib borayapti. Quyida e'tiboringizga, yaqin kelajakda insoniyatning og'irini yengil qilish uchun ishlab chiqariladigan, fayzli va yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan avtomobillar o'nligini havola etamiz.


1. Rolls-Royce Vision 100 kontsepti go'yoki dunyomizga «Taxt» filmidan tushgandek tasavvur uyg'otsa ajabmas. To'liq o'ziyurar loyihada ishlab chiqiladigan avtomobilda, tabiiyki haydovchi o'rindig'i va rul g'ildiragi bo'lmaydi. Buning o'rniga orqa o'rindiqlar joyiga shohona ipak matoli ikki kishilik divan o'rnatiladi. Uning qarshisiga keng OLED televizor osiladi.



2. BMW Vision Next 100 modeli ham Rolls-Royce kontseptiga mos keladi, biroq, undan farqli o‘laroq, haydovchiga mashinani boshqarishda tanlov qoldiradi: u xohlasa o‘zi boshqaradi, xohlasa mustaqil boshqaruv tizimiga o‘tkazadi. Unga o‘rnatilgan navigatsiya tizimi yo‘nalishni tanlagach, qo‘sishimcha ma'lumotni bosh oynada aks ettiradi.



3. Bunisi endi ayni o‘sha nemis kompaniyasining Mini Vision Next 100 rusumli avtomobili. BMW konserni fikricha, bu mashina boshqaruvni baham ko‘rish madaniyati, ya’ni bir mashinadan birgalikda foydalanishga mos keladi. Mini Vision Next 100 salon shifti va yoritish tizimlari tusini o‘zgartirish mumkin.



4. Mercedes kompaniyasi esa, aerodinamik ko‘rsatkichlarni yaxshilash imkonini beruvchi kuzov shakli o‘zgaradigan kontsept-kar ishlab chiqara oldi. Mashina, soatiga 80 km tezlikka erishganida korpusining shakli o‘zgaradi va harakat samaradorligini oshiradi. U, shuningdek, simsiz aloqa tizimiga ega. Bu

boshqa mashinalar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish bilan ularni oldindagi xavf-xatardan ogoh etish imkonini beradi.



5. Nissan kompaniyasi Teatro for Dayz kontseptining intereri to‘lik yorug‘liq panellariga ega bo‘lib, unda har qanday tasvirni aks ettirish mumkin. Elektrik kontsept-karning priborlar panelidan videoqo‘ng‘iroq qilish ham mumkin.



6. Audi kompaniyasining Audi h-tron kontsepti haqiqiy kelajak uchun mo‘ljallangan. Bu avtomobil vodorodda harakatlanadi. U, bir marta vodorodni to‘ldirgach, 600 kmgacha masofani ortda qoldiradi. Mashina 100 km/soat tezlikka 7,1 soniyada erisha olsa-da, Audi uni ommaviy ishlab chiqarishga qiziqayotgani yo‘q.



7. Suzuki Air Triser kontsepti uch qator o‘rindiqlar bilan jihozlangan bo‘lib, ularning shaklini o‘zgartirish orqali mashinani osongina mehmonxonaga aylantirish mumkin. Bundan tashqari, uning markaziy ustunida o‘rnatilgan display orqali smartfon va planshet videosini tomosha qilsa bo‘ladi.



8. Rinspeed kompaniyasi o‘zi ishlab chiqqan yuqori texnologiyali kontsept-karini Σtos deb nomlab, uni xarid qilganga kvadrokoptyor hadya qiladi, mashinaning orqa kapoti qo‘nish maydonchasisiga aylanadi. Dronni mashina ichidagi sensorli ekranlar vositasida boshqarish mumkin. Bundan tashqari, mashina haydovchisiz ham yura olgani sabab, lozim bo‘lgan vaqtida, rul priborlar paneli ichiga yig‘iladi.




9. Porsche Mission E — butunlay elektrlashtirilgan kontsept-kar. U fantastik interfeysga ega. U, haydovchi nigohini kuzata oladi. Xususan, radioni qo‘yish uchun unga nazar solishning o‘zi kifoya qiladi. Golografik ekran esa, qo‘l harakati bilan ham boshqarishga imkon beradi. Xavfsizlik oynalari vazifasini bajaruvchi kameralar orqa tasvirlarni old oynaning burchagida namoyish etadi. Bir marta quvvat olgan elektromobil 500 km yura oladi. Porsche mazkur mashinalarni 5 yil ichida seriyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish niyatida.



10. Faraday Future startapi shu yilning yanvar oyida, betmobilga o‘xshash kontsept-karini namoyish etgandi. U, haydovchining qiziqishlariga moslasha

oladi. Bu mashina ham mustaqil harakatlana olib, eng yuqori tezligini soatiga 320 kmga yetkaza oladi.



Ichki yonuv dvigatellarining ishlashi uchun uni havo va yonilg‘idan iborat yonuvchi aralashma bilan ta’minlash kerak bo‘ladi. Ta’milash tizimining vazifasi dvigatelning ish rejimiga mos ravishda ma’lum tarkibdagi yonuvchi aralashma tayyorlash (benzinli dvigatellarda silindrda tashqarida, dizellarda silindr ichida) va uni kerakli miqdorda silindrlarga uzatish hamda ulardan ishlatilgan gazlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. Ishlatiladigan yonilg‘ini turiga qarab ichki yonuv dvigatellari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- benzinli (karburatorli va injektorli) dvigatellar;
- dizelli dvigatellar;
- gaz yonilg‘isida ishlaydigan (suyuq va siqilgan) dvigatellar.

Karburatorli yonilg‘i ta’minlash tizimi bir vaqtning o‘zida quvvatni, momentni oshirgan holda yonilg‘i tejamkorligini oshirish va chiqindi gazlarni zararsizligi bo‘yicha qo‘yiladigan talabga javob bera olmaydi. Karburatorli dvigatellarning ta’minlash tizimining asosiy kamchi-ligi quyidagidan iborat:

- silindrlar sonini karburatordan har xil masofada joylashgan; —yonilg‘i aralashmasi karburatorda tayyorlanadi va silindrlarga tayyor aralashma uzatiladi.

Bu kamchiliklar natijasida silindrlarga har xil tarkibdagi yonilg‘i aralashmasi yetib boradi va yonilg‘i sarfi oshadi. Bu kamchiliklarni yo‘qotish uchun yonilg‘i aralashmasini har bir silindr oldida tayyorlash kerak bo‘ladi.

Zamonaviy avtomobil dvigatellarida har bir silindrning kiritish klapanlari yaqinida yonilg‘i aralashmasini tayyorlaydigan elektron yonilg‘i purkash tizimi (injektorlar) qo‘llaniladi.

#### NEKSIYA avtomobillarning ta'minot tizimi.

Bu avtomobillarning ta'minot tizimi karburatorli dvigatellarnikidan farq qilib, ularda karburator o‘rnida injektorlar ishlatiladi. Injektoring vazifasi yonilg‘i nasosidan bosim ostida (0.5-0.8MPa) kelayotgan yonilg‘ini kerakli miqdorda silindrga purkab berishdan iboratdir.

Ta'minot tizimga diagnoz qo'yilganda yonilg'i nasosi hosil qilayotgan bosim, injektorning texnik holati va yonilg'i filtrining holati nazoratdan o'tkaziladi. Bunda yonilg'i nasosining texnik holati, ya'ni hosil qilayotgan bosimini tekshirish uchun, injektor blokiga kelgan yonilg'i shlangasi yechilib, o'rniga monometrli o'lchov asbobi o'rnatiladi va yonilg'i nasosining maxsus "q" klemmasi kuchlanish tarmog'iga ulanadi.

Injektorlarning texnik holati, ularni birin-ketin uzish yo'li bilan aniqlanadi. Uning ishlamayotganligini dvigatelning tirsakli valini aylanishlar sonini o'zgarmasligidan bilish mumkin.

Har 10000 km dan so'ng yonilg'i filtr yechib olinib, siqilgan havo bilan ishlashiga qarshi yo'nalishda purkaladi.

<b>Dizel</b>	<b>dvigatellarini</b>	<b>ta'minot</b>	<b>tizimi.</b>
--------------	-----------------------	-----------------	----------------

A) Dizel dvigatellari ta'minot tiziminining nosozliklariga yuqori bosimli nasos va forsunka, plyunjer juftini yedirilishi va bosm me'yorini pasayishi, hamda germetiklikni buzilishi, forsunkaning purkash teshigini qurum bosib qolishi kiradi. Bu nosozliklar yonilg'i purkash momentini o'zgarishiga, yonilg'i nasosini bir maromda ishlamasligiga xamda ishlab chiqarish qobilyatiga va yonilg'i purkash sifatini pasayishiga olib keladi.

Dvigatel ta'minot tiziminining nosozligi va ishlamay qolishining tashqi alomatlari quyidagilardan iborat: dvigateli ishga tushirishning qiyinlashishi, yonilg'i sarfining me'yordan ortib ketishi, notejis ishlashi, tutashi, quvvatining kamayishi, shovqin bilan ishlashi va dvigatelning tirsakli vali aylanishlar sonining o'zgarmasli hisoblanadi.

Dvigateli ishga tushirishning qiyinlashishiga asosiy sabab yonilg'i kamerasiga kam miqdorda yonilg'i uzatilishidir. Tizimga havo kirib qolishi, filtrlovchi elementlarning ifloslanishi, past bosimli nasosning nosozligi (yoki yuqori bosimli yonilg'i haydash nasosi-YUBYON), plunjер juftining yeyilishi natijasida bosimning kamayishi va forsunka purkagichi soploli teshigining yeyilishi hamda purkash teshigini qurum to'sib qolishi natijasida yonilg'inig purkalishi yomonlashadi. Dvigatelning bir teks(tebranishsiz) ishlamasligi-tirsakli val aylanishlar soni kamligidan ta'minlash tizimiga havo so'rilib qolishidan, yonilg'i nasosi seksiyalaridan yonilg'i notejis yetkazilib berilishidan va forsunka holatining nosozlidigidir. Dvigatelning tutab (qora tutun bilan) ishlashi: YUBYON dan yonilg'ining erta yoki kech yetkazib berilishi sababli to'la yonmasligi, forsunka yeyilishidan soplo teshigining kengayishi natijasida purkash bosiminining kamayishi, kech yonilg'i yetkazib berilishi, forsunkadan sizib oqishi, havo filtrining ifloslanishi, purkalish teshigining qurum bosib ketishi natijasida purkashning yomonlashishi, forsunka soplosining ifloslanishi va yonilg'ida suv to'planib qolishi sabablidir.

Dvigatel quvvatining kamayishi ta'minlash tizimiga havo so'rilib qolishi, havo filtrining ifloslanishi, yonilg'ining yetarli miqdorda yetkazib berilmasligi, purkash burchagi sozlanishining buzilishi, forsunkadan yonilg'i purkalishining yomonlashishi, YUBYON dan yonilg'ini notejis va kam yetkazib berilishi,

kompressiyaning kam bo'lishi hamda tegishli (belgilangan) yonilg'idan foydalanmaslik sabablidir.

**B)**Ta'minot tizimiga diagnoz qo'yish va TXK da tizim germetikligi, yonilg'i ya havo tozalagichlar holati, yonilg'i haydash nasosi va yuqori bosim nasosi ishlashi tekshiriladi.

Tizim germetikligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ishdan chiqsa bakdan yoqilg'i haydash nasosigacha qismda tizimga havo surilishiga va yoqilg'ini ko'proq sarf bo'lishiga, hamda apparatlarni yaxshi ishlamasligiga olib keladi. Bu qism maxsus pribor-bachok yordamida tekshiriladi, qolgan qismi esa ko'z bilan tekshiriladi. Yonilg'i va havo filtrlari ko'z bilan tekshiriladi. Yonilg'i haydovchi va yuqori bosmli nasos SDTA jihozida tekshiriladi. Yoqilg'i haydovchi nasosning ishlab chiqarish qobiliyati kamida 2.2 l/minut (YAMZ-236 dvigateli uchun), maksimal hosil qiladigan bosim 380 kPa bo'lishi kerak. Silindrarga yonilg'i purkash burchaklari, uning ishlash rejimiga bog'liq bo'lib, (1-0°, 5-45°, 4-90°, 2-135°, 6-180°, 3-225°, 7-270°, 8-315° KamAZ-740 dvigatellari uchun) uning bir-biridan farqi 0.5° dan oshmasligi kerak. Yuqori bosim nasosi ishlab chiqarish qobiliyati dvigatelning 1050 ob/min aylanishlar sonida aniqlanib, har bir seksiyada 72.5-75 mm³/sikl (Kamaz -740 dvigateli uchun) va bir-biridan farqi 5% dan oshmasligi kerak. Seksiyalar ishlab chiqarish qobiliyatining (Vf) farqi quyidagicha aniqlanadi.

### **Gaz balloonli avtomobillarning ta'minot tizimi.**

A)Gaz balloonli avtomobillarning ta'minlash tizimining nosozliklari va ishlamay qolishlari: gaz o'tkazgich birikmalari, reduktor va aralashtirgichning nogermetigligi, reduktor klapanining shishib qolishi va nogermetigligi, diafragmaning yirtilishi, klapanning va gaz reduktori richagini yeyilishidan iborat. Gaz tizimi nosozliklarining tashqi belgilariga: dvigateli o't oldirishni qiyinlashishi, salt yurishdagi bir teks ishlamaslik va dvigatel tirsakli valining past aylanishlar sonidan yuqori aylanishlar soniga o'tuvchanligining kamayishi va siqilgan gaz sizib, tovush chiqarayot-ganligi va gaz chiqarayotgan birikmalarning yaxlab qolishi kabilar kiradi. Eng asosiy e'tiborni gaz reduktorining gemitigligiga qaratish lozim. Reduktoring ichki germetigligi klapan va o'rindig'ning ichki yuzasiga mexanik zarrachalarning tushib qolishi hisobiga buziladi. Shuningdek, klapan va richag o'rindig'inining smolalanib qolishi, klapanning shikastlanib qolishidan va boshqa sabablarga ko'ra, ta'minlash tizimiga gaz sizib o'tadi va shundan so'ng, gaz apparaturalarida gaz bosimining me'yordan ortib ketishi kuzatiladi. Tashqi nogermetiklik gaz jihozlarining nojipsligidan darak beradi va bu gazning tashqi muhitga sizib chiqishiga sababchi bo'ladi. Buning natijasida (gaz balloonli avtomobilarga TXK zonasida) gaz to'planib, bu yong'in chiqish va sanitariya nuqtai-nazardan havflidir.

**B) Gaz reduktoriga diagnoz qo'yish va unga TXK.** 2-TXK vaqtida birinchi va ikkinchi bosqich reduktori klapanining yurishi orqali gaz bosimi me'yorida bo'lishi tekshirib hamda rostlab turiladi. Reduktorga siqilgan havo yuborilib yoki avtomobil gaz magistrali ulangandan so'ng sozlash ishi amalga oshiriladi.

Reduktoring birinchi bosqichidagi gaz bosimi (dastlab kontrogaykani bo'shatib) gaykadan sozlanadi, ya'ni u buralganda, diafragmadagi prujinaning tarangligi o'zgaradi. Rostlash paytida gaz bosimi (avtomobil kabinasi ichidagi peshtoqdan) past bosimli manometrdan nazorat qilib turiladi. Suyultiril-gan gaz uchun birinchi bosqichidagi bosim 0,1 dan 0,2 MPa gacha bo'ladi Reduktoring Редукторнинг ikkinchi bosqichi bosimi rostlash nippelini burash hisobiga o'zgaradi: nippelni burasa, [bosim ortadi](#), aksincha bo'shatsa, bosim kamayadi. Ikkinci bosqichidagi gaz bosimini pyezometrda tekshirish uchun, reduktoring yuklovchi qurilmasiga shtutser ulanadi yoki shtutserga maxsus qopqoq (ikkinci bosqich qopqog'i tuynugi o'rniga) o'rnatiladi. Dvigatel salt ishlaganda, reduktoring ikkinchi bosqichidagi bosim  $0,05 \div 0,1 \text{ kPa}$  bo'ladi. Ballondagi gaz bosimiga bog'liq holda, yuklanish(nagruzka) ni oshirib, ikkinchi bosqichidagi bosim atmosfera bosimigacha yoki  $0,01 \div 0,02 \text{ kPa gacha}$ , to'la yuklanish (nagruzka) da esa,  $0,16 \div 0,25 \text{ kPa}$  gacha kamaytiriladikamaytiriladi Ikkinci bosqich klapanining to'g'ri o'rnatilishi diafragma shtogining yurish yo'lini ( $5:6$  mm bo'lishi kerak) tekshirib aniqlanadi. Klapanning yurishini rostlash uchun magestral ventili ochilib, klapanning rostlash vinti kontrgaykasi (klapan gaz chiqarishni boshlaguncha) bo'shatib turiladi. Shundan so'ng (klapandagi gaz sizib chiqishi to'xtaguncha, tovushi so'nguncha) rostlash vinti  $1/8:1/4$  nisbatda buraladi va kontrgayka burab mahkamlanadi. Magistral ventil berkitilib, klapanning yurish masofasi (yuqorida aytilganidek) diafragma shtogining yurish masofasi kabi tekshiriladi. Reduktoring (birinchi bosqichli) saqlovchi (predoxranitelnoy) klapani, chiqarish shtutserini burab (prujina tarangligini o'zgartirib) rostlanadi. To'g'ri rostlangan klapan gaz bosimi  $0,45 \text{ MPa}$  bo'lganda ochila boshlaydi.

*Ta'minlash tizimiga TXK ning o'ziga xos jihatlari.* Avtomobil yo'lga chiqishidan oldin har kuni [gazda ishlaydigan dvigatel](#), gaz quvurchalari, naychalarining germetikligi, gaz jihozlarining tashqaridan shikastlanmaganligi, kabinadagi magistral ventilining va rezervdagi ta'minlash tizimining ishlashi tekshiriladi. Avtomobil ishdan qaytgandan keyin ballondagi gaz ventilini berkitib qo'yish va gaz tizimida qolgan gazni (yondirib, tashqariga) chiqarib yuborish kerak. 1-TXK paytida (KXX dan tashqari) [reduktorni yechib](#), filtrlovchi elementni tozalanadi, magistral va bug', suyuqlik va to'diruvchi vetillarning shtogi rezbasi konsistent moy bilan moylanadi hamda gaz tizimi germetikligi (havoning  $1,6 \text{ MPa}$ ) bosimida tekshiriladi va inert gazi bilan gaz sizib chiqishi bartaraf etiladi. 2-TXK paytida (yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari), gaz apparutaralarining mahkamlanishi, yondirish payti (burchagi) ning to'g'ri o'rnatilishi tekshiriladi. Bundan tashqari, [gaz reduktori](#), aralashtirgich va bug'latgich tekshiriladi hamda rostlanadi. Bir yilda bir marta gaz apparaturalari taftish qilib turiladi. Ventillar klapani va uyasi (ishchi yuzalari) kirlanishdan tozalanib, zarur bo'lsa, bu yuzalar shilinadi va ishqalab artiladi (pritirka). Bug'latgich va gaz filtri atseton bilan yuviladi, klapanlar va reduktor prujinasining tarangligi rostlanadi. Zarur holda, yaroqsiz detallari almashтирilади.

## VI. GLOSSARIY

<b>Ishlab chiqarish jarayoni</b>	Mashinasozlikda texnologik jarayon detaldan buyumgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi
<b>Buyumning tuzilish sxemasi</b>	Detaldan yig‘ma birlikkacha o‘tishning ketma – ketligi
<b>Kesish rejimlari</b>	Kesish rejimlarini tanlash yoki hisoblash, va yana qirqish chuqurligi <i>tni</i> , surish <i>S</i> va qirqish tezligi <i>Vlarni</i> tanlash
<b>Ishlab chiqarishda asboblar</b>	Mashinasozlik ishlab chiqarishida qo‘llaniladigan asboblarning shakli va turi
<b>Yo‘nish uchun bir tipdagi aboblar</b>	Mashinasozlik ishlab chiqarishida qo‘llaniladigan keskichlar yoki turli xil tokarlik keskichlari
<b>Ishlab chiqarishda texnologik tayyorlov</b>	Berilgan operatsiya bajarilishini ta’minlash uchun texnologik jihozlarni loyihalash
<b>Yuza sifatining nazorati</b>	Yuza g‘adir – budirligi nazoratini ta’minlash asboblari va o‘lchash vositalari
<b>Aniqlik nazorati</b>	Aniqliknini baholash maqsadida o‘lchamlar og‘ishini o‘lchashuchun o‘lchash vositalari
<b>Ishlab chiqarishda integratsiyalash</b>	Mavjud ishlab chiqarishga muvofiq buyumni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish
<b>Ishlab chiqarish jarayoni</b>	Tabiiy boyliklarni inson uchun foydali buyumga aylanishi
<b>Operatsiya</b>	Ishlab chiqarish jarayonini tugallangan qismi bo‘lib, bunda ishlab chiqarish ob’ektining sifatli o‘zgarishi kelib chiqadi
<b>Mahsulot sifati</b>	Tayyorlanadigan buyumning chiqish ko‘rsatkichlarini yig‘indisi
<b>Mahsulot sifatini baholash</b>	Mahsulot chiqish ko‘rsatkichlarini sifatini norma talabga muvofiq baholash
<b>Ishlab chiqarishni modellashtirish</b>	Ishlab chiqarishning chiqish ko‘rsatkichlarini sxema va asosiy ishlab chiqarishga muvofiq olish
<b>Texnologik jihoz</b>	metall kesish stanoklari bilan bir qatorda zagatovkalarga elektroximik, elektrofizik usullar, fokuslangan elektron yoki lazer nuri, yuzalarni plastik deformatsiyalab va boshqa turdagilari o‘lchamli ishlov berish

**Universal stanok**

umumiyl vazifadagi mayda seriyali va seriyali ishlab chiqarishda keng nomenklaturadagi detallar tayyorlash uchun mo‘ljallangan stanok

**Ko‘p operatsiyali stanok**

kesuvchi asboblarni avtomatik almashtirish natijasida har xil operatsiyalarni bajara oladigan, zagotovkaga bir o‘rnatishda har tomondan “kompleks” ishlov berishni ta’minlaydigan stanok

**Moslanuvchan ishlab chiqarish moduli**

to‘liq manipulyatorlar to‘plami, nazorat o‘lchash qurulmalari bilan jihozlangan universal stanokga asoslangan ma’lum muddat davomida, “odamsiz texnologiya” sharoitida ishlay oladigan avtomatlashtirilgan universal texnologik yacheyka

**Maxsus stanok**

yirik seriyali va ayniqsa yalpi ishlab chiqarish sharoitlarida bir xil yoki deyarli bir xil detallarga yuqori mahsuldorlikda ishlov berish stanoki

**Avtomat liniya**

umumiyl transport va umumiyl boshqarish sistemasi bilan bog‘langan texnologik jarayon tartibiga muvofiq ketma-ket joylashgan avtomat stanoklar to‘plami

**Boshqarish sistemasi**

tashqi kirish ma’lumotlari va nazorat o‘chash qurilmalaridan olingan ichki joriy ma’lumotlar asosida texnologik jihozdaggi qolgan barcha podsistemalarning quyilgan topshiriqqa muvofiq to‘g‘ri ishlashini ta’minlovchi podsistema

**Asosiy ishchi operatsiyalar**

zagatovkaning shakl va o‘lchamini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar

**Yordamchi operatsiyalar**

zagatovkani almashtirish, mahkamlash, o‘lchash, kesuvchi asbobni almashtirish, kesuvchi asbob va butun stanok holatini nazarot qilish bilan bog‘liq operatsiyalar

**Manipulyasiyalash podsistemasi**

zagatovkani ishlov berish joyiga uzatish, berilgan holatda uni mahkamlash, nazarot-o‘lchash joyiga harakatlantirish, tayyor detallarni stanok ish zonasidan chiqarish, kesuvchi asboblarni va qo‘sishchasi moslamalarni almashtirishni ta’minlovchi sistema

**Bosh harakat yuritmasi**

kesish jarayonini muvofiq tezliklar bilan amalga oshirish uchun asbob yoki zagatovkani harakatlantiruvchi yuritma

**Surish yuritmasi**

ishlov beriladigan yuzani shakllantirish uchun asbobni zagatovkaga nisbatan harakatlantiruvchi yuritma

**Pozitsiyalash yuritmasi**

stanok uzelini ma'lum bir pozitsiyadan talab qilingan boshqa bir pozitsiyaga aniq o'rnatish bilan harakatlantirish yuritmasi. Zamonaviy RDB stanoklarida surish va pozitsiyalash yuritmalar funksiyalarini bitta yuritma bajaradi

**Manipulyasiyalash qo'rilmalari**

stanokda zagatovkalarni almashtirish, ularni siqish, harakatlantirishyoki burish, kesuvchi asboblarni almashtirish, qirindilarni yig'ish va h.k. kabi yordamchi operatsiyalarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi qurilmalar

**Sanoat roboti**

yordamchi operatsiyalarini avtomatlashtirishni ta'minlaydigan dasturli brshqariladigan qo'rilmalar

**Boshqarish qurilmasi**

operator tomonidan qo'lda xizmat qilinadigan mexanik boshqarish yoki stanokni ishlash jarayonini boshqarishni ta'minlovchi RDB qurilmalar majmui

**Stanok samaradorligi**

stanokni asosiy vazifasi - detalga ishlov berishda mehnat mahsuldorligini oshirish va shunga mos mehnat harajatlarini kamaytirishni ifodalovchi ko'rsatkichi

**Mahsuldorlik**

vaqt birligi ichida ma'lum miqdordagi detallarga ishlov bera olish hususiyatini ifodalovchi ko'satkich

**Ishonchlilik**

to'g'ri texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash va transportirovkalash shartlari bajarilganda, ma'lum xizmat muddati davomida berilgan miqdordagi yaroqli mahsulotni uzlucksiz ta'minlay olish xususiyati

**Texnologik ishonchliligi**

stanokning boshlang'ich aniqlik ko'rsatkichlari va ishlov berishning mos sifatlarini vaqt bo'yicha yuqotmasdan saqlash xususiyati

**Diagnostikalash**

stanoklarni ishonchlilagini oshirish maqsadida stanok va uning muhim uzel va elementlari haqidagi joriy axborotlarni yo'naltirilgan yig'ish

**Moslanuvchanlik**

yangi turdag'i detallarga ishlov berishga tez va kam xarajatlar bilan uyahta sozvana olish xususiyati

<b>Universallik</b>	har turdag'i (nomenklaturadagi) detallarga ishlov bera olish xususiyati
<b>Seriyaligi</b>	detallarning yillik ishlab chiqarish hajmini nomenklatura miqdoriga nisbati, ya'ni S=A/N
<b>Qayta sozlanuvchanlik</b>	bir turdag'i detaillar partiyasiga ishlov berishdan boshqa turdag'i detaillar partiyasiga ishlov berishga sarflanadigan vaqt va vositalarni ifodalovchi xusuiyati

## VII. Adabiyotlar ro'yxati:

1. Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2017.1173.
2. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, London, UK, 2010.
3. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>.
4. A.G. Suslov, A.M. Dalskiy. (2002). Nauchnie osnovi texnologii mashinostroeniya. Mashinostroeniya, Moskva, 689c.
5. Bazrov B.M. Osnovi texnologii mashinostroeniya. – M: Mashinostroenie, 2005.-736 s.
6. Proektirovanie texnologii avtomatizirovannogo mashinostroeniya. Pod red. Solomensova YU.M. M.: «Vlysshaya shkola», 1999.
7. Mexatronika: Per. s yapon./ Isii X., Inoue T. i dr. - M.: Mir, 1988. - 318s.
8. Oliy ta'limning me'yoriy - huquqiy xujjatlari to'plami. -T., 2013.
9. Juraev M.A. Mamadjanov A.M. va b. RDB dastgohlarida metallarga ishlov berish texnologiyasi. T.: Shark, 2007.
10. Pashkevich N.F. i dr. Texnologiya mashinostroeniya: uch. pos. /pod red. Pashkevicha N.F./ Minsk.: Novoe znanie, 2018 -478 s.
11. Feñenko V.N. Obespechenie kachestva produktsii i mashinostroenii. Uchebnik. -M.: Infro-Injeneriya, 2019. -788 s.
12. Liang S.Y., SHih A.J. Analiz obrabotki i Stankov. Springer, 2019. <http://www.twirpx.com/file/1857733/>.
13. Kapustin N.M. i dr. «Avtomatizasiya proizvodstvennykh prosessov v mashinostroenie. Uchebnik. M.: Vlysshaya shkola, 2018. -415.
14. Biktimirov R.I., Grechishnikov V.A. i drugie. Upravlenie kachestvom v mashinostroenii. S-Pb: Piter, 2005 g, 256 s.
15. L.V.Peregudov. Upravlenie kachestvom v mashinostroenii. Tashkent: "Moliya", 2002 g.
16. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
17. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
18. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
19. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyoNET.
20. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.